

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

MADATOVA HABIBA ULUG'BEK QIZI

O'zbek adabiyoti kafedrasining
5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Rauf Parfi lirikasi

Ilmiy rahbar:

Handwritten signature f.f.n. S. Kurbanova
TASDIQ
KADRLAR BO'LUMI
DEVONKOMA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Urganch – 2019

MUNDARIJA:

KIRISH	3
 I BOB. RAUF PARFI IJODIDA DAVR MANZARALARI	
1.1. Rauf Parfi hayot va ijod yo‘li	6
1.2. Rauf Parfi lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari	13
1.3. Rauf Parfi ijodida davr va ijtimoiy muhit	21
 II BOB. RAUF PARFINING POETIK MAHORATI	
2.1. Rauf Parfi she‘riyatida inson va tabiat tasviri	30
2.2. Rauf Parfi she‘riyatida ijtimoiy ohanglar	35
2.3. Shoir ijodida badiiylik mezonlari	41
 XULOSA	50
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin boshqa sohalar bilan bir qatorda adabiyot va adabiyotshunoslik sohasida ham bir qator syangilanishlar, o'zgarishlar bo'ldi. Istiqlol yillari milliy adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixining alohida sahifasini tashkil etadi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilar esa inson ruhining muhandislari, deb ta'rif lanishi bejiz emas..."¹

O'tgan asrning 70-yillari milliy she'riyatimiz maydoniga bir qator yangi iste'dodlar kirib keldi va o'z yo'nalishi, yangicha nigohi bilan kishilar e'tiborini tortdi. Bunday navqiron avlod adabiy jarayonga o'zgacha bir to'lqin, ruh baxsh etdi. Shunday navqiron ijodkorlar safida inson tuyg'ularini usta san'atkorlik mahorati ila qalamga olgan, hamon o'z kitobxonlarining sevimli shoiri bo'lib kelayotgan Rauf Parfi ham bor.

"XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan Rauf Parfi – Sir shoiri unvoni, sohir she'riyat sohibidir"². Undagi samimiy va jimjimadorlikdan holi bo'lgan adabiy yaratishlar hamma vaqtlarda ham o'z muxlislariga ega bo'lgan. Ba'zan kishi tafakkuri va aqliy faoliyatini bir oz zo'riqtirib, ba'zan esa tabiatning jonli tasviri orqali ruhiy olam sokinligini baxshida etgan shoir, sukunatning ajib torlarini ko'ngilga olib kirgandek bo'ladi.

Jahon adabiyoti durdonalaridan yaxshigina xabardor bo'lgan Rauf Parfi o'ziga xos yo'nalish, badiiy did asosida sharq va g'arb she'riyatini omixta tarzda keng kitobxon ommasiga taqdim etdi. Aytish mumkinki, Rauf Parfi ijodini jahon adabiyotshunosligi mezonlari nuqtayi nazaridan o'rganish, baholash, uning badiiy mahoratini aniqlash muhim vazifalardandir.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. - Б. 136.

² Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 5.

Ana shunday muhim adabiy-estetik hodisani o'rganishga bag'ishlangani, Rauf Parfi badiiy mahoratini tadqiq qilish vazifasi qo'yilgan ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Ma'lumki, badiiy va estetik go'zallik adabiyotshunoslikning birinchi shartidir. Rauf Parfi o'zbek adabiyotini o'zining betakror asarlari bilan boyitib peshqadamlik qilgan shoirlar sirasiga kiradi. Undagi badiiy mahorat qirralari inson ruhiy olamini ochib beruvchi vosita sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, shoir ijodiy laboratoriyasini o'rganish orqali she'rlaridagi asl ma'no va badiiyati yanada ravshanlashadi. Ya'ni Rauf Parfi she'rlari mazmun-mohiyati hamda talqinda qanday shakl va uslublardan foydalanganini tadqiq etish ijodkorning o'ziga xos tomonlarini aniqlashda, shuningdek, uning milliy adabiyotimiz va tafakkurimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunos olimlar tomonidan Rauf Parfi ijodi haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon davom etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Rauf Parfi ijodini o'rganish o'zi faoliyat olib borgan davrdan boshlangan. Bugungi kunga qadar shoir ijodining turli qirralari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mavzu yuzasidan bir qancha tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar yaratilgan. Shoir ijodi haqida No'mon Rahimjonov, O.Shodmonov, R.Rahmat, A.Ulug'ov, M.Xolova, O.Oltinbekov¹ kabi adabiyotshunos va tanqidchilarning ilmiy asarlari va tadqiqotlari, ilmiy maqolalarida fikr yuritilgan. Bu tadqiqotlarda Rauf Parfi ijodining g'oyaviy-estetik jihatlari, shoir lirikasida obrazlar tasnifi, Rauf Parfining poetik mahorati va adabiy-estetik qarashlari singari masalalar chuqur o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi Rauf Parfining she'rlaridagi badiiylik, inson va tabiat tasviri, davr va shaxs konsepsiyasi

¹ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979; Шодмонов О. Адабиёт қисматдир. – Т.: Шарқ, 2014; Раҳмат Р. Адабиётдан чиқиш. – Т.: Академнашр, 2015; Улугов А. Қалб қандили. – Т.: Академнашр, 2013; Холова М. Рауф Парфи ижодида метафора. – Т.: Мухаррир, 2013; Олтинбеков О. Рауф Парфининг адабий-эстетик қарашлари. – Т.: Мухаррир, 2013.

muammolarini aniqlash, shu asnoda shoirning badiiy mahoratini she'rlari tahlili misolida tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda, ishda quyidagi muayyan vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- shoirning hayot va ijod yo'liga bir nazar tashlash;
- shoir she'rlarida an'anaviylik va modernlik jihatlarini tadqiq qilish;
- shoirning obraz yaratishda tasviriy vositalardan qay darajada foydalanganini aniqlash;
- shoir she'rlari tabiati va uslubiy xususiyatlarini g'oya va obrazlarning ajralmas birligi sifatida tadqiq etish;
- Rauf Parfining badiiy mahorati sirlarini aniqlash;
- Rauf Parfi she'riyatiga davr va ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida, asosan, Rauf Parfining "Sakina", "Tavba", "Qaytish", "Sabr daraxti" to'plamlaridan o'rin olgan she'rlari belgilandi.

Tadqiqotning predmeti. Rauf Parfi she'rlaridagi inson va jamiyat tasviri, davr manzaralari, ularning o'ziga xosligi, shoirning badiiy-estetik mahorati masalalarini ochib berish tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Bitiruv-malakaviy ishda ilmiy bilishning analiz, sintez, qiyosiy va muammoli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda Rauf Parfi she'riyatida inson va tabiat munosabati masalasi, shoir ijodida ijtimoiy muhit, davr nigohi, kishilar ruhiy olami masalalari tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Ushbu masalalarni tadqiq etish ishning o'ziga xos ilmiy yangiligini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi sahifadan iborat.

I BOB. RAUF PARFI IJODIDA DAVR MANZARALARI

1.1. Rauf Parfi hayot va ijod yo'li

Bu olam yaralibdiki, o'zlikni anglash, undagi inja tuyg'ularni his eta olish uchun insoniyat tinmay harakat qiladi. Qachonki u borliqdagi minglab narsa va hodisalar orasidan o'zini topa olsa, undagi asliyat, haqqoniylik namoyon bo'ladi. "Insonning o'zini anglashi, uning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga qarab zavqlanishidan, badiiy asarlarni o'qib hayratlanishidan boshlanadi"¹. Qiziquvchan, yangilikka tashna bu qalb hamisha nimanidir bilishga, undan zavqlanishga harakat qiladi. Odatda, go'zallik kishilarni o'ziga maftun etadi. Har qanday o'z ishining ustasi tomonidan bunyod etilgan yaratiq borlig'imizni qurshab olishi bilan birgalikda, ich-ichimizgacha singib kiradi. Biz go'zallik dunyoni qutqaradi,- deymiz. Bunga ozgina o'zgartirish qilib, adabiyot dunyoni qutqaradi,- desak ham ,mening nazarimda ,xato qilmagan bo'lamiz. Zero, adabiyot inson ma'naviyati uchun xizmat qiladi. So'z qudrati ila vujudga keluvchi otashin tuyg'ular kishilar qalbini asir etishi tayin. Biz bilamizki, so'z badiiy adabiyotning asosiy quroli hisoblanadi. Unda bugungi va kechagi kunimiz o'z ifodasini topgan bo'ladi. Kitob mutolaasiga berilgan kitobxon yana ulkan rejalar bilan kelajakka yorqin nigoh tashlay oladi. Adabiyot mana shunday ulkan qudratga ega.

Bugungi kunda adabiyotning rivoj topib borayotgan yo'nalishlaridan biri she'riyatdir. Hozirga qadar she'riyat bo'stonida ko'plab chamanzorlar bunyod etildi. Ularning har biri adabiyot deb atalmish bu keng maydonda o'z o'rnini topishga harakat qilmoqda. Barcha zamonlarda ham o'z davrining darg'alari unutilmas ijod sohiblari bo'lgan. Xuddi shunday, XX asrning 80-yillari o'zbek adabiyotining yangilanish-u o'zgarishlari kishilar shuuriga o'zgacha badiiylilik hadya etgan bir vaqtda ,yuksak iste'dod sohiblari ham maydonga kela boshladi. Turg'unlikning jimib qolgan damlarida sokingina esa boshlagan iste'dod shabadalaridan biri bo'lgan Rauf Parfi ham shunday ijod sohiblaridan edi.

¹ Улугов А. Қалб қандили. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 3.

O'zbek she'riyatida "tuyg'ular rassomi" deya ta'riflangan Rauf Parfi xilma-xil yo'nalishlarga ega bo'lgan zamonaviy o'zbek adabiyotining she'riyat deb nomlanuvchi gulshanida o'ziga xos bog' barpo eta oldi.

Shoir nomini eslashim bilan, maktabda ona tili va adabiyot o'qituvchimizning aytib bergan xotiralari yodimga tushadi. U kishi shunday degan edilar: "Oliy o'quv yurtida o'qib yurgan kezlarimda shoir Rauf Parfi bilan adabiy uchrashuv o'tkazildi. U vaqtlar ancha yosh edi. Shunga qaramay sochlariga oq oralagan, o'ychan qiyofada ko'z o'ngimda namoyon bo'ldi." O'sha vaqtlarda eshitganlarim va yodimda qolgani shular edi, xolos. Lekin bu so'zlarni hali hamon unutganim yo'q. O'shandayoq, Rauf Parfi she'riyati meni o'ziga tamomila rom etgan edi. Shularni eslab "Sir shoiri", "Oq sochli go'dak" ta'riflari shoirga bejiz berilmaganiga iymonim komil bo'ladi. Shoirning hayot va ijod yo'li ham o'ziga xos.

She'riyati va shaxsiyati birlashib ketgan Tursunali Parpiboy o'g'li Madaminov (Rauf Parfi) Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumaniga qarashli Sho'ralisoy qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keladi. Shoirning asl kelib chiqishi Farg'onaning Vodilidan hisoblanadi. Otasi taqdir taqozosi bilan Sho'ralisoyga kelib qolgan. "Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi ham zavqi baland, kitob ko'rgan, mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo'lib, u kishi ham asli farg'onalik edi"¹.

"Parfi Muhammad Aminning eskicha, yangicha ma'lumoti bo'lib, fors-tojik, usmonli turk va rus tillarini yaxshi bilgan. Rus bosqiniga qadar, undan keyin ham bir muddat turli mahkamalarda tilmochlik qilgan. Keyinroq bolshevizmning qonli qatag'onidan jon saqlash uchun umrining oxirigacha o'zini savodsiz, deb yozdirgan.

Rauf Parfi tug'ilgan yili va ismi turli hujjatlarda turlicha yozilgan (1941, 1942, 1943). U yillari bu taraflarda tug'ilganligi haqidagi guvohnomalar hali

¹ Karimov N. va b. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2004. - B. 337.

rasmiy bo‘lmagan. Birgina ishonchli hujjat yaqingacha jamoa raisi Hamroqul Tursunqulovning kotibi Hamid Azimboyevning uyida saqlangan katta xo‘jalik daftari bo‘lib, unda “...Tursunali Parpiboy o‘g‘li Madaminov 1943-yil 27-sentabrda tug‘ilgan...” deb yozilgan. H.Azimboyevning aytishicha, eng to‘g‘ri hujjat shu emish. Garchi, otasi yolg‘iz o‘g‘liga Abdurauf deb ism qo‘ygan esa-da, qarindosh-urug‘lar, shu bola o‘lmasin (avvalgi bolalari turmagan), tursin deb, irim qilishib ,Tursunali otini qo‘yganlar. Xuddi shu ma’noda, boshida ikki kokil ham o‘stirib, birini O‘sh pirimga, birini Shohimardon pirimga bag‘ishlaganlar (Islomiy, Shamanizm)”¹.

Shoir dunyoga kelgan oila bilan rahbariyat o‘rtasida ayrim kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bunga sabab qilib, otasining kelib chiqishi boylardan ekanligi ko‘rsatiladi. Davrning og‘ir, kun kechirish qiyin bo‘lgan paytlarida ota-onasi turli xildagi yumushlar bilan band bo‘lib, oila och qolishiga yo‘l qo‘ymaydilar. “1947-yili ota-onasi bilan Vodil, Shohimardon, Jalolobodga boradi. Keyin O‘shga o‘tishadi. O‘sh pirimga bag‘ishlangan kokilni 1948-yili oldiradi. Oradan bir yil o‘tgach, 1949-yil xatna to‘yi bo‘ladi. Birinchi sinfga boradi.

1950-yili ikkinchi sinfga o‘tadi. Darsliklardan tashqari badiiy kitoblarni chanqoqlik bilan o‘qiy boshlaydi. Ota-onasi bilan Shohimardonga boradi. Shohimardon pirimga bag‘ishlangan ikkinchi kokilini oldiradi...”²

Uning bilimga chanqoqligi shu darajada ediki, hattoki qarindoshi Hamroqul Tursunqulovning kutubxonasidagi kitoblarni o‘qish jarayonida tushunsa tushunmasa-da, rus tilidagi kitoblarni ham o‘qib tashlayverganligi haqidagi ma’lumotlar ayrim manbalarda berib o‘tilgan. Bu esa uning fikr dunyosi keng, tafakkuri teran bo‘lib shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, uning tarbiyasi va dunyoqarashining shakllanishida otasi Parfi Muhammad Aminning do‘sti, g‘azalnavis shoir Abdurahmon Vodiliyning ta’siri katta bo‘ldi. U

¹ Парфи Р. Сакина. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 7.

² O‘sha manba. – Б. 8.

Rauf Parfining birinchi ustozini sanalib, 1953-yildan birgalikdagi faoliyatlarini olib boradilar. Bo'lajak shoir birinchi she'rini 1953-yilning 5-martida yozadi. O'n yoshida yozilgan bu she'r Stalin xotirasiga bag'ishlab "Endi qanday yashaymiz?" deb nomlangan marsiya edi.

"1955-yili otasi qattiq betob bo'lib qoladi va bir necha kishi kelib, Toshkentda davolatamiz, - deb olib ketadilar... Mirzacho'lning qaysidir kasalxonasidan amakisi Kamoliddin Musabek o'g'li uning jasadini olib keladi.

1956-yil Rauf Parfi endilikda, Yangiyo'l shahar kutubxonasidagi boshqa badiiy kitoblar qatori, "Biblioteka poeta" turkumidagi hamma kitoblarni qunt va maroq bilan simirgudek o'rganishga tutinadi.

1957-yil Yangiyo'l shahridagi Alisher Navoiy nomidagi maktabda o'qiydi. 1958-yili "Yangiyo'l" tuman gazetasida birinchi she'ri bosiladi.

Yangiyo'l shahridagi 2-son bosmaxonada harf teruvchi bo'lib ishlay boshlaydi. 1959-yili kechki maktab tahsilini tugatgach, ToshDU (hozirgi O'zMU) Sharq fakultetining Arab filologiyasi bo'limiga hujjat topshiradi, lekin omadi chopmaydi. Kelgusi – 1960-yili ayni shu universitetning O'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. Talabalik davridanoq jahon klassikasi namunalaridan – Blok, Takuboku she'rlarini tarjima qiladi. "Turk dunyosi adabiyoti" kursini ochish taklifi bilan chiqadi; o'zi va do'stlari uchun "Turk dunyosi she'riyati" dasturini yozadi.

Talabalik yillari R. Parfi uchun tom ma'noda izlanish, ijodiy shakllanish davri bo'lgan... Ko'p shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar, kinochilar bilan tanishadi va do'stlashadi. "Qrim" kitobini yozadi. Samarqand viloyati Poyariq tumanida "Laylo" pyesasi qo'yiladi (muallifi - Barot). Bosh qahramon – Raufdir ("Laylo" qo'shig'i atrofidagi afsonalar asosida)"¹. O'sha yillarida yozilgan "Laylo" she'ri qo'shiq qilib kuylanib, Rauf Parfi nomini yanada mashhur qilib yuboradi. Universitet saboqlari "1965-yilda bitgan bo'lsa-da, shoir "Markscha-

¹ Парфи Р. Сакина. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 9-10.

lenincha falsafa” deb atalmish fandan o‘tolmagani va qayta imtihon topshirishni istamagani uchun universitet diplomini ololmaydi”.¹

Shundan so‘ng turli joylarda mehnat faoliyatini olib boradi. “Rauf Parfi 1966-1967-yillarda Yangiyo‘lda chiqadigan “Kolxoz haqiqati” gazetasi muxbiri bo‘lib ishladi. 1967-yilda Toshkentga kelib, Kinematografiya davlat qo‘mitasida muharrir bo‘lib ishladi. 1971-1977-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. So‘ng “Oydin” gazetasida, 1987-yilgacha yana G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida mehnat qildi. 1987-1989-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, 1989-yildan 1997-yilgacha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Targ‘ibot markazida katta muharrir, 1997-1999- yillarda “Jahon adabiyoti” jurnali bo‘lim mudiri vazifalarida ishladi².

Shunday qilib, shoir hayoti turli xil voqealarga, izlanishlarga, ijodiy barkamollikka boy tarzda o‘tdi. Bu yillar oralig‘ida u 1 o‘g‘il va 3 qizli bo‘ldi: Shuhrat, Muqaddas, Munojot va Sevinch. Rauf Parfining hayot yo‘li bir tekisda kechmadi. Ba’zida qop-qora sochlariga oq tushib g‘am-anduhdan mung‘ayib qoldi, ba’zan esa qizg‘in ijodiy muhit ta’sirida o‘zligini ham unutdi. “O‘zbekiston va Ozarbayjon adiblarining Xalil Rizo rahbarligida o‘tgan yig‘inida unga Rauf Parfi O‘zturk, Xalil Rizoning o‘ziga esa Ulug‘turk – ism-sharifi beriladi. Kandakor Omon Aziz uning suratini misga o‘yib chizadi. (Habibulloh Zayniddinda saqlanadi)³.” Rassom Shuhrat Abdurashid qizi Munojotda saqlanayotgan suratini ishlaydi. “Haykaltarosh Ilhom Jabbor uning byustini ishlaydi (haykaltaroshning aytishicha, kimdir bolta bilan chopib tashlagan).”⁴

Olamga o‘ziga xos ko‘z bilan qaraydigan, uning boshqalardan yashirin go‘zalliklari va qabohatlarini payqay biladigan Rauf Parfi o‘zligini she’riyati orqali namoyon qildi.

¹ N.Karimov va b. Adabiyot:umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. –T.: O‘qituvchi, 2004. – B.337.

² O‘sha joyda.

³ Парфи Р. Сакина. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 11.

⁴ O‘sha joyda.

Shoirning qalb tuyg'ularini o'zida jamlagan birinchi she'riy to'plami 1969-yilda chop etilgan "Karvon qo'ng'iroqlari"dir. Shundan so'ng, uning birin- ketin "Aks- sado" (1970), "Tasvir" (1973), "Xotirot" (1975), "Ko'zlar" (1977), "Qaytish" (1978), "Sabr daraxti" (1986), "Bargrezon" (1987), "Ona Turkiston" (1988), "Sukunat" (1989), "Turkiston ruhi" (1992) kabi she'riy to'plamlari chiqqan boshladi. "Keyingi yillarda "Tavba", "Meni erk shoiri denglar", "Ming yil sizni izladimmi men", "Dunyoning eng go'zal ayoli", "Txakuriya" turkumlarini, "Adashgan ruh" manzumasini yozadi"¹. "So'nggi vido" (2006) ham shunday ijodiy namunalardan biri sanaladi.

Shoirning 1990-yilda tartib berilgan "Turon diyori", "Fano vodiysi" (1993), "Muhojir" kabi asarlari tugallanmagan.

"Shoirning "Tasvir" kitobi 60 sahifalar atrofida. Bu to'plamda uning tafakkur ko'lamini kengaytib, hissiyotlari chiyralganiga, falsafiy mushohadasi teranlashganiga shohid bo'lamiz.

Shoir davr tug'yonlarini dadil qalamga oladi. Uning ijodida jahon she'riyatining yorqin yulduzlari - o'zi e'tiqod qo'ygan shoirlar: N.Hikmat, P.Neruda, R.Tagor she'rlariga xos ohanglar va yapon she'riyatining yorqin qirralari ko'rini boshlaydi...

Shoir ijodiy izlanishlari davomida, jahon she'riyatidan ko'p narsa o'rgandi... Shu boisdan ham, uning she'riyatida turli xil uslublarni uchratamiz. U o'z ijodiga sarbastni, yapon she'riyati uslublarini, sonetni dadil olib kirgan shoir edi. Biroq, bu uslublarning barchasi she'rlarida mukammal bo'y ko'satdi, muxlislariga hamisha manzur bo'ldi, - deyish qiyin.

Zero, bir paytlar alloma adib Asqad Muxtor shoirning "Sabr daraxti" to'plamiga yozgan so'z boshida: "...she'rlariga sarin musiqiylik bag'ishlay oladigan shoir og'ir mavzularga qo'l urganda sarbastga murojaat qilib, ba'zi shakliy shartliliklardan o'zini xoli qilib oladi... Sarbast uni negadir ko'pincha deklamatsiyaga sudrab ketadi", degan edi.

¹ Парфи Р. Сакина. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 13.

“Xokkular” esa she’riyatimizga tabiatan singishib ketmaganligi bilan (garchi shoir uni “Tuyg‘ular” deb nomlagan esa-da), uning ijodida unchalik muvaffaqiyat qozonmadi. Ayni shu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash kerakki, Rauf Parfining ushbu “izlanish tajribalari” ko‘p shoirlar uchun “yuqumli” bo‘ldi va she’riyatda yuqorida ta’kidlaganimiz singari uslublar “urchib” ketdi. Bugungi kunda ular “modern she’riyat” degan nom ham oldi”.¹

Xususan, shoirning 2000-yillarda nashr etilgan “Tavba” she’riy to‘plami ham hajman uncha katta bo‘lmasa-da, she’rlaridagi mahorat va betakrorlik bilan kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. “Tavba” she’riy to‘plami 39 ta she’rni o‘z ichiga olgan bo‘lib, she’rlarining har biri mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishi bilan bir-biridan farq qiladi. She’rlaridan birida Turkistonni uyg‘onishga chaqirsa, yana boshqalari atoqli yozuvchilarimiz Cho‘lpon, Fitrat haqida, shuningdek, jahon adabiyoti namoyandalaridan Chingiz Aytmatov, Tagor, Betxoven, Bayron, Aleksandr Blok va boshqalar tilida o‘z tuyg‘ularini bayon qiladi. U mana shunday sof va samimiy tuyg‘ularni o‘zida jamlagan kitoblari orqali qalblarimizga kirib keldi. Undagi ijodiy yuksalishlarni aynan shu to‘plamlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Rauf Parfi o‘z izlanishlarining samarasini yuksak o‘rinlardan birini egallab turgan she’rlari misolida ko‘rdi.

Rauf Parfi jahon adabiyotining nodir durdonalaridan tarjimalar qilib, o‘zbek kitobxonlari e’tiboriga havola qildi. Shulardan 1976-yili A.Dyumaning “Uch sarboz”, 1980-yili Brext, Bexer, Neruda va boshqa XX asr jahon shoirlari she’rlarini, 1982-yilda Nozim Hikmatning “Inson manzaralari”, Y.Solovichning “Kumush sirtlon” dramasini, 1985-yili A.Dvardovskiyning “Xotira huquqi” dostonini, Bayronning “Manfret”, Kaladzening “Dengiz xayoli”, Mahmud Hodiyning “Ozodlik lavhalari” kabilarni misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin.

Mana shunday ijodiy yuksakligi va adabiyot olamida tutgan o‘rni inobatga olingan holda, Rauf Parfi bir qator mukofotlarga loyiq topilgan.

¹ www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir Rauf Parfi haqida, 2009.

Unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 25-avgustdagi Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” faxriy unvoni berildi”¹.

Shu bilan birgalikda Rauf Parfi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Turkiya Yozarlar birligining adabiy mukofotlariga ham sazovor bo‘lgan. U Xalqaro Mahmud Qoshg‘ariy, Turkiya Diyonat Vaqfi mukofotining laureati hamdir.

Shoir ijodiy faoliyatini boshlagan davridan bugungi kunga qadar xalqimiz ardog‘ida. Uning adabiyotimiz xazinasini boyitib turgan badiiy durdonalari o‘ziga xosligi, chin iste’dod mevalari ekanligi bilan ham qadrlidir.

O‘zbek adabiyotining mana shunday jonkuyar va fidoiy ijodkori bo‘lgan Rauf Parfi 2005-yil 28-martda Toshkent shahrida vafot etdi. Mirpo‘lat Mirzo: “Shunday shoirning hayot bilan vidolashganiga to hanuz ko‘nika olmasak, ne ajab” - degan so‘zlarida tamomila haq edi.

1.2. Rauf Parfi lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari

Fasllar almashinishi tabiatning o‘zgarmas qonunining tabiiy jarayoni, hosilasi. Badiiy adabiyotda ham nuroniy avlodlar o‘rniga navqiron nasllarning kirib kelishi ma’naviy-intellektual ehtiyoj, ruhoniy zarurat taqozosidir. Bu – badiiy-estetik tafakkurda hamisha yangi did va estetik saviyalarning zohir bo‘lishi demakdir. Asl shoirlarning tarjimaiy holi nihoyatda qisqa, taqdirlari esa g‘oyat uzun bo‘ladi. Tug‘ilish-u so‘nggi nafas oralig‘ida kechgan umr, bu – yorug‘ qismat, achchiq ko‘rgilik. Tun bilan kunlarning, shom bilan tonglarning o‘rin almashinishi, bu – tabiat silsilasining shunchaki bir odatiy ko‘rinishi, holati emas. U – ezgulik bilan yovuzlik, mutelik bilan erkin nafas, yaxshilik bilan yomonlik, adalot bilan yolg‘on-riyo, nur bilan zulmat o‘rtasida kechadigan azaliy va abadiy kurash, muhoraba jarayonlari. Qismat – bu she’riyat.

¹ Курбон Ш. Рауф Парфи сабоқлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. - Б. 3.

She'riyatda shoirning birovdan yashiradigan mahfiy narsasi yo'q. Faqat, she'rning sir-asrori bo'ladi. Bu – badiiyatga aylangan qismat. Taqdirning olov ko'zlarini ko'ngliga joylagan she'r. Rauf Parfi ilk she'rlaridanoq dunyoqarashi, ruhoniyligi, ma'naviy e'tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o'zligini namoyon qildi. "Hasratlari dunyoning ko'pdir", "Mudrar yarim kecha...", "She'riyat", "Tong otmoqda. Tong o'qlar otar", "Targ'illanib bormoqda osmon", "Termulaman olis ufqqa", "Cheksiz-cheksiz daqiqalardan iboratdir" singari o'nlab she'rlarida ijtimoiy-estetik idealining yorug' alomatlarini kuzatish mumkin. "Bir qushcha sayraydi mening ruhimda, Men sening ismingni bilmayman qushcham...", deydi shoir "Daryo mavjlariga yozilmish g'azal" she'rida.

XX asrning 60-yil o'rtalari, 70-yil boshlari she'riyatga kirib kelgan, yorqin o'zligini namoyon etgan Rauf Parfi yangi, ohori to'kilmagan, kutilmagan noan'anaviy majoziy (Qushcha, Chiroq, Daraxt, Nay, Nur) obrazlari bilan adabiy jamoatchilik muhabbatini qozondi; majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan el-yurt nazariga tushdi. Rauf Parfi she'rlaridagi insonga mehr-muhabbat harorati, ishonch-e'tibor ruhi, dardchil-ma'yus va mahzun ohang, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan samimiylik, ko'zga surtgudek e'zoz-ehtirom topdi. Va yanayam muhimi, shoir asarlarining ijtimoiy-falsafiy mag'zi she'riyatimizda yangi yo'nalish edi. Xususan, birinchidan, hayotdan, tiriklikdan maqsad, ruhni kamol topdirishdir. Ikkinchidan, ruhoniyl erkinliksiz odam o'zligini namoyon qila bilmaydi; uchinchidan, milliy birliksiz millat, xalq o'z borlig'ini saqlab qola olmaydi, degan ustuvor g'oyalar shoir she'riyatining estetik qimmatini belgilab berdi. "Ayni orzularda, ayni qayg'ularda, ayni sevinchlarda yashamoq" tiriklikning mohiyatidir, deb biladi u.

Insonning ruhoniyl erkinligi masalasi Rauf Parfi ijodining o'zak mag'zini tashkil etadi. Shu boisdan ham ,shoir lirikasida tuyg'ular hayotini, kechinmalar manzarasini, holat-kayfiyatlar suratini chizish alohida tamoyilga aylangan. Shu boisdan ham, uni tuyg'u-kechinmalar musavviri deyishadi. Shu ma'noda birgina "Yomg'ir emas, marvarid yog'ar" satri bilan boshlanadigan she'rini ko'zdan

kechirish kifoya. Yomg‘ir – sharqona tasavvurlarga ko‘ra – qut-baraka, ilohiy ne‘mat, yaxshilik va ezgulik urug‘i. Unga shoirlar o‘z ruhoniy holatlari, kayfiyatlariga monand ma‘nolar yuklashadi. Ya‘ni, har bir shoir o‘z estetik prinsiplaridan kelib chiqib, yomg‘ir vositasida turfa xil badiiy-falsafiy mazmunni ifodalashga intiladi. Kimdir yomg‘irda yorning ko‘z yoshlarini ko‘radi. Yana kimdir yig‘layotgan ko‘ngilni tasavvur qiladi. Boshqa bir shoir she‘rida yomg‘ir bulutlarning, qop-qora qo‘ng‘ir osmonning yerga yo‘llagan tansiq so‘zlari bo‘lib anglashiladi.

Rauf Parfi tasvirida yomg‘ir – qop-qorong‘i kecha shaklida. Kecha esa suv singari jildirab oqadi. Shu boisdan ham, kecha shod va bearmon kechayotir. Boisi – bag‘rida suvdek hayotbaxsh oydinlik, ertangi kunning yorug‘ epkini bor.

Yomg‘ir emas, marvarid yog‘ar,
Yomg‘ir – kecha shaklida bu on.
Suv singari jildirab oqar,
Kecha kechar shod va bearmon.

Barglarda raqs etar shabboda,
O‘ynar sabo shaklida kecha,
Tun bulutga ko‘tarib boda
Afsonalar aytar tongacha.

Tanizorim igna uchinda
Ko‘zlarimda porlar qora nur.
Menga kecha yomg‘ir ichinda
Mash‘um xayol kabi ko‘rinur,
Ruxsorini yuvgan kechada
Men bilmagan yalang‘och shuur¹.

¹ Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б. 3.

Lirik qahramon kechinmalari qorong‘i kechada yog‘ayotgan yomg‘irga esh. Undan surur, umid tuyadi. Shu ma’noda, uning nazdida, barglarda raqs etar shabboda. Hatto, zimiston qorong‘ilik ham sabo shaklida yoqimli, farahbaxsh. Gullar singari himo tortib, tonggacha afsonalar aytayotgandek tuyuladi. Shu boisdan ham, lirik qahramon ko‘nglidan shu‘la otiladi, kiprigidan nur chaqnaydi. Xayol – adoqsiz bo‘shliq qa‘ridagi ro‘yo emas. U yomg‘ir ichidagi zimiston qorong‘ilik. Unga ishonsa bo‘ladi. Garchand, qorong‘ilik og‘ushida esa-da, yomg‘irdagi oydin shabboda epkini ertaga otajak tonglar umidini uyg‘otadi.

Ko‘rinadiki, timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslubining o‘tli nafasi, o‘zak mag‘zi, deyish mumkin. Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha‘ni-erkini, haqini oyoqosti etuvchi, adolatsizlik ko‘rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug‘yon Rauf Parfi she‘rlarida tuyg‘ular realizmi ustuvor deyishga asos beradi. Rauf Parfi XX asr o‘zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san‘at darajasiga ko‘targan, sof tuyg‘uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Bu – XX asr o‘rtalaridan e‘tiboran XXI asr o‘zbek she‘riyati taraqqiyotida alohida yo‘nalish kasb etdi. Mustaqil badiiy idrok va ifoda madaniyati sifatida shakllandi.

XX asrning 60-yil oxirlari 70-yil boshlaridan e‘tiboran o‘zbek she‘riyatiga Rauf Parfi O‘zturk olib kirgan yangi epkin mustaqil badiiy-estetik yo‘nalishga aylandi.

Rauf Parfi estetikasida san‘at ning, so‘zning ma‘rifiy-tarbiyaviy roli, ahamiyati masalasi alohida o‘rin tutadi. “...Millat bor ekan, demak, adabiyot bor, So‘z bor. Jahonga buyuk so‘z sohiblarini bergan bu tuproq, bu havo, bu suv, bu olov insoniyatni shafqatsiz, qonli o‘yinlardan, qirg‘inlardan, balo-yu ofatlardan asray olmadi. Lekin, oliyjanob, qutlug‘ so‘z yaxshilar tarafida ekani quvonchlidir”. Shoirning ishonch-e‘tiqodiga ko‘ra, ezgu so‘z odamlar ongiga nur-yorug‘lik olib kiradi, ko‘ngillardan yovuzlik, johillik, yomonlikni quvib chiqaradi. Shu tariqa, ko‘ngillarni tozartiradi. Ruhiyatni poklaydi. Din odamlarni poklar ekan, asl

she'riyat ham din misol yuksak ma'naviy salohiyatga ega. Ezgu so'z odamlar ongi-tafakkuriga ta'sir ko'rsatish orqali ko'ngillarga uya qurgan xiyonat, riyomunofiqlik, sotqinlik, qo'rquvni haydaydi. Ko'ngillarda oliyjanoblik, ezgulik gulzorlarini ko'kartiradi, saxovat va mehr-shafqat bog'larini barpo qiladi.

Bir so'z bor- bor

Beg'ubor tong kabi go'zal.

Tong chog'i ochilgan g'uncha kabi,

G'unchada shabnam kabi musaffo...

Shirin tuyg'ularning

Shirin farzandi

Osmon kabi bepoyon ko'zlar sevinchi yanglig'

Bir so'z bor.

Bir so'z bor

Haqiqat so'zidan ham yuksak,

Haqiqatning o'zidan ham yuksak

Bir so'z bor...¹

Bu – san'at -san'at kor-jamiat masalasida yangi nuqtayi nazari, yangi tushuncha va yangi nigohi ila badiiy tafakkur madaniyatida shoir o'zgacha yo'nalish yaratdi, demakdir. Bu - san'at asarlarini tushunish, tushuntirish va baholashda ham estetik mezonlarni o'zgartirdi, yangiladi, demakdir.

Shoir estetikasida vijdon erkinligi masalasi alohida o'rin tutadi. Ruh va ko'ngil hurriyati, erk fenomeni R.Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etiladi. Xususan, ong-shuurimizdagi ko'rinmas, sezilmas temirdek qo'pol va qattiq bir kuch bizni metin iplari bilan bog'lab turadi. Yurish-turishimizdan tortib, gap-so'zlarimizgacha, xatti-harakatimiz-u o'y-

¹ Парфи Р. Қайтиш. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.26.

fikrlarimizgacha, bir soʻz bilan aytganda, izimiz-u soʻzimizni, koʻrar koʻzimiz-u oʻzimizni boshqaradi. Burni ostidan boshqa narsani koʻrmaydigan ahvolga soladi. Ichimizdagi siyosiy nozirning farmonbardor hukmron mavqeyi kishini qullik, mutelik holatiga soladi. Ana shu narsa iymoni sust ijodkorni badgumon hukmron mafkura nogʻorasiga oʻynatib qoʻyadi. Qachonki, ijodkor ruhan erkin boʻlmas ekan, hech qachon mafkuraviy qoliplardan, siyosiy manfaatdorlikdan xalos boʻlolmaydi. Zamonasozlikka beriladi. Shaxs erkin boʻlmas ekan, u mansub millat ham, Vatan ham ozod boʻlolmaydi. Bu – shoir talqinidagi erkning baland nuqtasi. Ana shu maqomga yetishish esa, avvalo, Insonning oʻzini oʻzi tanishidan boshlanadi. “... Narsalarga erkimizni bogʻlab qoʻyganmiz, moddiyatning qulimiz, - deydi Rauf Parfi. – Bu “ayyor” aqlning xulosalari, oqil aqlniki emas. Aql Ollohni tanishdan chalgʻisa, bu – ayyorlik. Oqil deb Ollohni bilganga aytishadi. Ollohni tanigan banda moddiyatga bogʻlanib qolmaydi, u oʻzining qorovuli emas. U oʻzining egasi, oʻzligini izlayotgan inson”.

R.Parfi estetik qarashlarining ildizlari Sharq va Gʻarb badiiyatining mumtoz namunalaridan suv ichadi. Shu boisdan ham, shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuygʻular realizmiga moyil sanʼat korlar koʻproq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga koʻra, shoirni dunyoviy zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning toʻrt fasliga monand kechinmalar tugʻyoni, hayoti band etadi. Shu boisdan ham, shoir adabiy asarlarning estetik qimmatini va ahamiyatini belgilashda ularning salohiyatini, badiiyatini bosh mezon, deb biladi. Boshiga qilich kelganda ham faqat rost soʻzlash, Haq va Haqiqatni yoqlash, har qanday yolgʻon, riyo, makr, zulm va xiyonat koʻrinishlarini inkor etish, ularga qarshi isyon koʻtarish R.Parfi estetikasining magʻzini tashkil etadi.

Rauf Parfi estetikasida Turon-Turkiston mavzusi alohida sahifani tashkil etadi. “Turon-Turkiston mavzusi miloddan avvalgi yozma adabiyotlarda yuz koʻrsatib keladi, - deb yozadi R.Parfi. – Misr-Bobil, Xitoy-Hindiston, Rum, Eron, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk dunyosi jahon ilm-u fani,

madaniyati, adabiyoti va san'at i xazinasiga o'zining munosib merosini berdi va berajakdir".

R.Parfi Turon-Turkiston mavzusiga bag'ishlangan she'rlarida falsafiy, ijtimoiy mazmuniga ko'ra so'zlarning qaddini-yu qadrini bir bahya baland ko'taradi, qanotini yuksaltiradi, ularga parvoz beradi:

Tegramda zich havo – ona Turkiston,
Yorgay tomirimni ko'r hayajonim.
Bu maydon ichinda men to'kmagan qon,
Mening uning deya ayagan jonim...
Parchin-parchin bo'ldi yodim simlari,
Simlar – ko'zlarimga mil tortgan chizgu.
O'tgan ulug'larni eslayman barin,
Xotirot mozori Turkiston mangu¹.

Shoirning "So'zlar", "She'riyat", "Xarita", "Ona tilim", "Turkiston", "Cho'li Iroq", "Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo", "Qadimiy turkiylardan", "O'zingni ayama, borayotgan ildiz", "Anglatgani anglagan boshlar qani" singari o'nlab she'rlarida Turon-Turkistonning olis o'tmishi, buguni va kelajagi bilan bog'liq turfa badiiy talqinlar silsilasini kuzatamiz. Badiiy So'zning shunchalar katta salohiyati borligidan hayratlarga cho'mamiz.

Shoirning ko'nglini, ijodini bilmoqchi bo'lsang, uning ona yurtini borib ko'r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani – bu uning sehrli, purhikmat ma'nolarni o'ziga singdirgan sirli qiyofalar dunyosi. Rauf Parfi lirikasidagi So'z, Ko'z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar tagdor, purma'no mazmun ifodalashiga ko'ra timsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi fojiali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o'chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo'mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 73-74.

qayta tiriltirish, oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat R. Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir.

So'z san'atida hamma bir-biriga shogird, lekin har kim o'z yo'lidan ketadi, deydi adib. O'zbek tilining ramzlarga, timsollarga boy ma'no qirralarini aks ettirish R. Parfi izlanishlarining mag'zidir. U so'zning ta'mini, hidini, rangini, bo'yoqlarini g'oyat his etadi. Shu ma'noda, har bir she'ridan shoirning qaynoq, ehtirosli nafasi shundoqqina sezilib turadi. Har bir so'zning ortidan uning o'zi qarab turgandek tuyuladi. U aytadigan gapi uchun so'z tanlamaydi. Balki, fikrchan kechinmalari o'z ma'nosi, o'z ifodasi bilan tug'iladi. R.Parfi "Har bir so'zim-oshkor jahonim", deyishi ham shundan. U "So'zlar" she'rida yozadi: "So'zlar. Tun qo'ynida bo'shliqning qo'llari ko'ksimni qisarkan, ruhim taslim bo'lmaydirda, olg'a intilar, qarshimda bir oq bino paydo bo'lur, oq binoda qalin va oq ko'rpalariga o'ranib-chirmanib qator so'rilarda uxlab yotgan so'zlarni ko'raman. Yana tun qo'ynida bo'shliqning temir qo'llari ko'ksimni qisarkan: - Yordam bering, uxlab yotavermang, — deya hayqiraman. Shunday uyg'otaman qadimiy so'zlarni"¹.

R.Parfi O'zturk she'riyatida so'z konkret ma'no tashib kelishidan tashqari, inson shaxsi va ma'naviyatidagi muayyan go'zallikni, timsolli yoki ibratli mazmunni ifodalashiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. R.Parfi izlanishlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, kosa tagidagi nimkosa tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik, ayniqsa, ustuvor. R.Parfining so'z ustida ishlash zahmati shundan iboratki, "So'zlar" she'rida kuzatilganidek, u "Oq binoda qalin va oq ko'rpalariga o'ranib-chirmanib, qator so'rilarda" uxlab yotgan qadimiy so'zlarni uyqudan uyg'otadi. Ularni yashashga, kurashga, faoliyatga safarbar qiladi. Zero, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, she'riyat muttasil yangilanib turadi. So'zlarning ma'nosiga ko'ra doimo yangilanib turishi esa uning mohiyatini tashkil qiladi:

¹ Парфи Р. Қайтиш. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. — Б. 177.

Darak gap. Inson. Undov gap. Inson!

So‘roq gap: Inson? Yashamakni o‘rgatar so‘zlar.

Ba‘zan ko‘ksimizda tashigan qonni tashlamakni o‘rgatar so‘zlar. So‘zlar kerak, Bosh harblarda yaralangan. Bosh harflardan yaralgan so‘zlar. Bolari so‘zdoni bir ajib, so‘zlardir peshonada to‘plangan ajin, qo‘llarimiz fikrchan so‘zlardir¹.

Ko‘rinadiki, timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslubining o‘tli nafasi, o‘zak mag‘zi, deyish mumkin. Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha‘ni-erkini, haqini oyoqosti etuvchi, adolatsizlik ko‘rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug‘yon Rauf Parfi she‘rlarida tuyg‘ular realizmi ustuvor deyishga asos beradi. Rauf Parfi XX asr o‘zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san‘at darajasiga ko‘targan, sof tuyg‘uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Bu – XX asr o‘rtalaridan e‘tiboran XXI asr o‘zbek she‘riyati taraqqiyotida alohida yo‘nalish kasb etdi. Mustaqil badiiy idrok va ifoda madaniyati sifatida shakllandi.

XX asrning 60-yil oxirlari 70-yil boshlaridan e‘tiboran o‘zbek she‘riyatiga Rauf Parfi O‘zturk olib kirgan yangi epkin mustaqil badiiy-estetik yo‘nalishga aylandi.

1.3. Rauf Parfi ijodida davr va ijtimoiy muhit

Inson uzoq davom etgan o‘zgarishlar asrida o‘zini anglashga harakat qildi. Hozirga qadar ilmiy jihatdan bahslarga sabab bo‘layotgan insonning maymundan tarqalganligi haqidagi nazariya o‘z yechimini topgani yo‘q. Bu ikki mavjudod oxiri yo‘q bahs- munozarani keltirib chiqardi. Ayrim nazariyotchilarning fikricha, “maymunni odamga aylantirgan birdan bir kuch – muhit, o‘zgargan hayot tarzi”.²

¹ Парфи Р. Она Туркистон. – Т., 2007. – Б. 18.

² Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. – Б.16.

“Maymun mehnat vositasida insonga aylandi, degan lofni asl ma’noda emas, balki ko‘chma ma’noda qabul qilsak, sixni ham, kabobni ham kuydirmagan bo‘lamiz. Chunki shunday qilinganda, odamning maymundan tarqamaganligini aytish bilan bilan birga, insonning hozirgi holga kelishida mehnatning, ijtimoiy hayotning buyuk rolini e’tirof etamiz”¹.

Albatta, bu qarashlar to‘la o‘z isbotini topmagan. Biz hozir asosiy e’tiborimizni qaratmoqchi bo‘lgan narsa odam maymundan yaralgani haqidagi bahslar emas. Balki, muhitning inson hayotidagi o‘rnini o‘rganish. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, muhit katta ta’sir kuchiga ega. Muhit insonni qaysidir ma’noda haqiqiy inson bo‘lib shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bir tomondan, ijtimoiy muhitni insonning o‘zi keltirib chiqaradi.

Demak, inson o‘zi tomonidan vujudga keltirilgan mavjud muhitda ayrim shaxslarning yaratgan g‘oyalari asosida ba’zan haq, ba’zida esa nohaq bo‘lib yashar ekanlarda?

Bunday qarashlar zamonning zayli bilan turli davrlarda turlicha ifodalanadi. Xususan, ko‘p uzoqqa bormay bundan I asr ilgari vujudga kelgan muhit bilan hozirgi XXI asr hayot tarzini solishtiradigan bo‘lsak, ular orasida yer bilan osmoncha farq bor. Qarashlar, g‘oyalar turlicha. Buning oqibatida esa insoniyat tinimsiz harakatlari natijasi o‘laroq, asliyatni, dunyoni boricha, hech bir nizo va qarshiliklarsiz ko‘rishga intilishi bo‘ldi.

Ma’lum bir davrning ijtimoiy hayotini bilib olish uchun o‘sha muhitda yaratilgan badiiy asarlarni o‘qishning o‘zi kifoya. Badiiyatga ijodkorlar asosan, o‘zlarining “men”idan kelib chiqqan holda yondashadilar. Bunday vaqtlarda esa har bir ijodkorning adabiy merosi uning ijodida davr va ijtimoiy muhitning o‘rni qay darajada ekanligini izchillik bilan o‘rganishni taqozo etadi.

Xuddi shunday Rauf Parfi ijodida ham, bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir misralarining har bir satrida tuyg‘ulari qulochini keng yoyar ekan, unda o‘z

¹ Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 13.

hayoti va borlig'ini to'kib soladi. Aynan, shuning uchun ham ijodkor asarlarini tahlil qilishda davr o'rnini alohida o'rganish zarur.

Demak, hech bir inson o'zi tug'ilib- o'sgan, yashayotgan davridan alohida bo'la olmaydi. Chunki, uning bor dunyosi shu olam bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Davr va ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda ,badiiy adabiyot durdonalari tahlil qilinib, shoir ijodi o'rganiladi. Har bir yaratiqda bu ikki xususiyat nafasi ufurib turgani holda ,ijtimoiy ongning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson hayotida davrning o'rnini juda muhim sanaladi. Shu bilan birgalikda, sara ijod namunalarigina ma'lum bir davrga aloqador va o'sha jarayonni ko'rsatib beruvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi. Shoir Rauf Parfi ijodida davr va ijtimoiy muhitni o'rganish jarayoni aynan, o'sha davr voqeligi, o'zgarishlariga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

O'sha davr uchun mavjud tuzumning chizgan chizig'i va keltirgan xulosalari juda muhim sanalib, ko'ngil ishi bo'lmish she'riyatda ham ma'lum darajada belgilab qo'yilgan qonun-qoidalar vujudga keldi. Ijtimoiy erkinlikning bo'g'iqligi esa qaysidir ma'noda shoirni cheklagandek bo'ldi. Lekin ijodkor shaxs bunday nohaqliklarga jim qarab tura olmaydi. U o'z so'zini yozg'ichlari orqali bayon etib, ommaga ma'lum qiladi. Xuddi shunday vaqtda "XX asr yangi o'zbek she'riyatida ozodlik, istiqloq, ma'rifatparvarlik, yangi jamiyat qurish, komil inson, muhabbat kabi o'nlab mavzular bilan bog'liq ideallarning turli-tuman badiiy estetik ko'rinishlariga duch kelamiz"¹. Bunday estetik ko'rinishlar o'z navbatida ijodkor dunyosining ma'lum jihatlarini qamrab olgani holda tasviriy obyekt vazifasini o'tadi. Shoir, yozuvchilar shu mavzular doirasida fikr- mulohazalarini bayon eta borishdi. Shunday bo'lsa-da, davr boshlarida ijoddagi bajarilishi shart qilib qo'yilgan qonun-qoidalar borligini ham inkor eta olmaymiz. Ijod esa qonuniyatlarga bo'ysunmaydi. Noqisliklar shoir dunyosiga yot holatdir. "Shoirilar

¹ Хамдам У. Янги ўзбек шеърияти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 62.

inson qalbi qo‘ridagi haqiqatni oshkor eta oladilar”¹. Bunday oshkoralik ba’zida ko‘plab dilxiraliklarni keltirib chiqaradi.

Shoir voqelikni davrdan oladi. Uning shiddatli to‘lqinlarida toblangan g‘oyaviy barkamollik esa, ijtimoiy muhitni yuzaga keltiradi. Ijtimoiylik o‘z navbatida birgina sabab bilan yuzaga kelmaydi. Turli xildagi qarashlarning maydonga kelishi bu holatni yanada jadallashishiga olib keladi.

“Haqiqiy ijodning tabiatiga zid bo‘lgan bu holat 60-yillardan boshlabgina bartaraf etila bordi va bu jarayon qariyb istiqloлга qadar davom etdi... XX asrga kelib, adabiyot, jumladan, she‘riyatning ijtimoiylashuvi tezlashdi ”.² Inson ongining ijtimoiylashuvi o‘sha muhit orqali kamol topadi, rivojlanadi, o‘sadi va o‘z navbatida shakllanadi.

Umuman olganda, Rauf Parfi ijodida bunday qarashlarga o‘ziga xos tarzda yondashilgan. Uning ko‘plab she‘rlarida davr ruhi va ijtimoiy muhit aks etib turadi. Bu esa atrofida yuz berayotdan jarayonga o‘z munosabatini bevosita bildirib turganidan darak beradi. Shoir ijodida ijtimoiy mavzular talaygina. Davr ruhi uning ham suratida, ham siyratida aks etib, asliyatini kengroq namoyon qilishiga yordam beradi. Uning o‘y-u fikrlari butunligicha borliqni kengroq idrok etishga undadi. “O‘zga hayot tarzining kirib kelishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi jamiyatda shaxs maqomining o‘zgarishiga, inson fitratidagi ijtimoiylik ibtidosining kuchayishi va shuning natijasi o‘laroq lirikaning ijtimoiylashuviga olib keldi”³. Bu jarayonda inson ongi yetakchi o‘rinni egalladi va yurak bilan hamnafaslikda o‘z so‘zini ayta oldi. Xuddi shunday o‘ylar shoirni ham chetlab o‘tmadi. U davrdan kelib chiqqan holda, o‘zining eng og‘riqli nuqtalari haqida o‘yladi va yozdi. O‘sha zamongagina xos bo‘lgan dardli nolishlar qalamlari orqali qog‘ozga to‘kildi. Tuyg‘ulari qurshovida yashagan shoir atrofidagi voqea-hodisalarga jimgina qarab tomoshabin bo‘lib tura olmaydi. “Shoir o‘sha davrga nisbatan yuragidagi isyonni zohir etish uchun imkon axtaradi, turli badiiy

¹ Раҳмат Р. Адабиётдан чиқиш. – Т.: Академнашр, 2015. – Б. 61.

² Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 63.

³ Ўша манба. – Б. 64.

vositalarni ishga soladi... Rauf Parfi o‘z dardlarini dunyoviy miqyosga olib chiqadi... ”¹. Balki, shuning uchun ham isyonkor, haq so‘zni ayta oluvchi shaxs sifatida tanilgandir. Nafaqat she‘rlarida, har bir ishi, yurish-turishida ham shoir o‘zining davrga bo‘lgan munosabatini bildirgan. Shu sababli “jamiyat tirik shoirlarni xush ko‘rmaydi. Hatto Platon ham utopik ideal davlatiga shoirlarni yaqin yo‘latgisi kelmagan. Balki, shoirlarning o‘zi Platonning go‘zal xayoliy davlatida yashashni istamagan bo‘larmidi?”² Shoirning ijodi aynan erkinlikka tashna, adolatning sog‘inchi kuchaygan vaqtga to‘g‘ri keladi.

“Rauf Parfi ruhidagi iztirobli kechinmalar o‘z mavridi bilan she‘rlariga ko‘cha boshladi. Erk, Istiqlol, Turkiston mavzusi ijodida teranlashdi.

Sho‘rolar siyosatidagi bir yoqlamalik, Kompartiya sha‘niga hamd-u sanolar shoirni qattiq taajjubga solar, yuragidagi dardlarini zohir etishga mutlaqo izn bermasdi. Mana shu jarayonda shoir ijodida turkum – turkum she‘rlar paydo bo‘ldiki, ulardagi misralarda ehtiros kuchli bo‘lib, fikr ana shu ehtiros tubida qolib ketar va uni oddiy she‘rxonning anglab olishi amri mahol edi”³.

Buning natijasi o‘laroq: “Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar dunyo...”, “Yurak”, “Abdurauf Fitrat”, “Adashgan ruh”, “Ona Turkiston”, “Uxlama, sen haqiqat” kabi o‘nlab davr jarohatidan yaralgan she‘rlar vujudga keldi. Belgilab qo‘yilgan qonuniyatlar asosida ijod qilish doimo haq so‘zni aytguvchi shoirlar olamiga xos emas. Uyg‘oq dillar uchun kuylangan qalb nolishlari shoir she‘rlarida Vatan, Ona - Turkiston mavzulariga qayta-qayta murojaat etishga sabab bo‘ldi. Bunga aynan davr va ijtimoiy muhitning ta‘siri yuqori bo‘ldi,- desak adashmaymiz. Yuragi qa‘riga berkingan tuyg‘ularini esa sekin-astalik bilan she‘rlari orqali oshkor qildi.

Shuning uchun ham u:

Daryo kabi doimo uyg‘oq,

Intilishim tog‘ qadar baland,

¹ www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir Rauf Parfi haqida, 2009.

² Раҳмат Р. Адабиётдан чиқиш. – Т.: Академнашр, 2015. - Б. 60.

³ www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir (Rauf Parfi haqida), 2009.

Olis yo‘lga otlandim, biroq,
Mehrim bilan, muhabbat bilan,
Ey ko‘nglimda tug‘ilgan Vatan.

Xotiralar so‘zlar har bir tosh,
Esdaliklar yog‘adi osmon.
Tirikliging shohidi quyosh
Eslamakdan tinmaydi hamon.
Onajonim, oh, O‘zbekiston.

O‘zbekiston, eng shirin bo‘sa
Kabi lablarimda urinding.
Men olisga otlanar bo‘lsam
Yuraklarim bo‘lib ko‘rinding.
Onajonim, oh, O‘zbekiston¹ – deydi.

Ha, shu qadar samimiy, ayni yurakning o‘zida toblangan bu so‘zlar, qalb yong‘inida kuydirib yuboradi. Bunday hislar shoirni Ona- Vatan haqida o‘ylashga undaydi. Badiiylik to‘niga burkangan bu misralar chin ma’noda, go‘zal ijodiy yaratq bo‘la olgan, -desak ayni haqiqatdir. Aynan, itimoiy muhitning o‘zi shoir ijodida mana shunday hasratlardan yaralgan qalb nolishlarini qog‘ozga to‘kishga majbur qiladi. Endi murakkab va bo‘ysunmas tuyg‘ularni dadil qalamga oladi. Mirpo‘lat Mirzo Rauf Parfi ijodiy jarayoni haqida: “U endi oddiy she’rxonni emas, zamonni teran anglaydigan, erktalab hurriyat shabadalariga ko‘ksini dadil ochgani holda, she’rlar ijod qila boshladi”²- deb xotirlaydi.

“Sho‘rolar siyosati baravj bir davr – o‘tgan asrning 60-70-yillarida o‘zbek shoiri O‘zbekistonni Vatanim deb kuylashi, xususan, uning o‘tmishini ulug‘lashi, xalqning orzu-armonlaridan, yo‘qolib borayotgan o‘zligidan gap ochishi mumkin

¹ Парфи Р. Сукунат. – Т.: Юлдузча, 1989. – Б. 7.

² www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir (Rauf Parfi haqida), 2009.

emasdi, bu tuyg‘u darhol milliy mahdudlikka yo‘yilar va bu muallif boshiga malomatlar yog‘dirardi.

O‘, ona Turkiston, kuylayman yonib,
Dunyo jur‘atini berding qo‘limga.
Men endi angladim Turkiy Dunyoni,
Mana, men tayyorman endi o‘limga.

Ey mening zahmatkash, ey qutlug‘ xalqim,
Bergil, faqat kuyib kuylamak haqqin.
Ortiq mas‘ul etar topilgan bu Baxt.

“Ishq so‘zidan kuydi bulbul maskani”,
Til bilan kuylanmas ona Vatanim,
Men seni kuylamoq istayman faqat¹.

Ushbu she‘r 1967-yilda bitilgan. Uning zamiridagi shoir dardiga bir zum quloq tutaylik. Qo‘sh tirnoqqa olingan birinchi satr Alisher Navoiyga taalluqli ekanligiga shoir izoh bergan. Ya‘ni, bulbul o‘z maskani – chamaniga bo‘lgan muhabbatini kuyib – yonib izhor etishi mumkin, lekin men seni hamisha kuylamoq istasam-da, kuylay olmayman (kuylashim mumkin emas), ona – Vatanim, deya nola qiladi shoir”².

Ana shunday ijtimoiy muhitning ta‘sirida vujudga kelgan nolalar shoir ijodida talaygina. Bu she‘r ham davr jarohatidan vujudga kelgan:

O, onajonim Turkiston, o‘ylayman seni,
Tinglayman olamning shivirin takror,
Bandi maskaniga chorlaydi meni
Kibor cho‘qqilarda muzlagan bahor³.

¹ Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б.11.

² www.kh-davron.uz. Mirpo‘lat Mirzo: Shoir (Rauf Parfi haqida), 2009.

³ Парфи Р. Сакина. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 45.

Onadek aziz Turkiston shoir o'ylaridan ketmaydi. Olamda bo'layotgan voqeliklar shivirin takror-takror tinglaydi. Lekin qanchalar bandi bo'lmasin ,o'z yurti uni hamisha bag'riga chorlab turadi. Xuddi sira tugamasdek tuyulgan bu damlar, olislarda kibor cho'qqilarda muzlab qolgan bahorga o'xshaydi. Shunday bo'lsa-da ,shoir g'amga botmaydi. Chunki, u biladi "hali shoirning kuni tug'ilgani yo'q". Bunday achchiq unlar bir kun, albatta, tilga kiradi va o'z so'zini aytadi. Shoini qurshab turgan muhit shunday o'ylar sari yetaklaydi.

Hali bo'g'izlarda bo'g'ilar nafas,
Eski yaralardan chak-chak tomar qon.
Shoirni kuylatgan tabiat emas,
Shoirni kuylatgan Hazrati Inson¹.

Shoirilar kelajakni oldindan ko'ra oladi ,deyishadi. Bu gapning haqiqat ekanligiga ko'hna tarix guvoh. 70-yillardayoq, u insonlar oyoqqa turib, eski yaralari uyg'onib kurashuvchanlik ruhi yanada jo'sh urishi haqida bashorat qilgandek, go'yo. Bu bilan esa hukmron muhitning kuni tugayotganiga ham ishora qilib o'tgandek bo'ladi.

"70-yillar avlodi she'riyatida voqelikka kinoyaviy munosabat ham ko'zga tashlanadi. Kinoya, birinchi galda, uzoq vaqt topinib kelingan ideallarga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, 80-yillarning o'rtalaridan boshlab kuchli va ochiq tarzda namoyon bo'ldi. Mazkur hol bir necha avlod ijodkorlar sig'inib kelgan ideal umrini yashab bo'lgani, oxirgi nafaslarini olayotganidan darak edi... Mamlakatning istiqloлга erishuvi bilan XX asr shoirlari fikr-u yodini band etib, goh oshkor, goh pinhon yashab kelgan asriy orzu-armon ushalgan edi".²

Erkin ijodiy jarayon ijodkorlar uchun ulkan cho'qqilar eshigini ochib berdi. Zo'rma-zo'raki tuzum o'zining kuchini yo'qotib, yetmish yil davom etgan boshqaruvini izdan chiqardi. Xususan, she'riyat ham yetakchilik qilib kelgan g'oyalardan voz kechib, sof tuyg'ularga yo'g'rilgan holda yarala boshladi.

¹ Парфи Р. Хотирот. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 77.

² Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 59.

“Istiqlol davrida poeziyada g‘oyaparastlik o‘z kuchini yo‘qotdi. She’riyat hukmron g‘oyadan – yagona yetakchi mafkuradan chekindi. Bu juda muhim faktor. Chunki u shu davr she’riyatining asosiy xususiyatlaridan biri”¹.

Istiqlol yaratgan muhit ,shoir Rauf Parfi ijodiy faoliyatida ham yuksak o‘rinlardan birini egallagan holda, uzoq kutilgan ozodlik nashidalari, yangi davr va ijtimoiy muhitni quvonch bilan she’rlari orqali qarshi oldi. Uning tilidan qayta – qayta yangrayotgan: “Men uyg‘ondim. Salom – assalom” degan so‘zlari bor vujudini qamragani holda, erk deya nomlangan nashida sururini tuyishiga yordam berdi.

¹ O‘sha manba. – B. 295.

II BOB. RAUF PARFINING POETIK MAHORATI

2.1. Rauf Parfi she'riyatida inson va tabiat tasviri

Inson barcha soha va yo'nalishlarning asosini tashkil etgani kabi ,badiiy adabiyotning ham o'rganish obyekti sanaladi. Uning his-tuyg'ulari, o'y-kechinmalari hamisha birinchi pog'onaga qo'yib kelingan. Ayniqsa, she'riyatda bu holatga keng o'rin beriladi. Chunki, u inson tuyg'ularidan bahra olgan holda yaraladi. Bularning barchasini tasvirlash uchun turli xildagi timsol, obrazlar yordamga keladi. Timsol va ramziy belgilar ko'pincha tabiatdan olinadi. Zero, inson ham mana shu tabiatning bir bo'lagi sanaladi. "Tabiat barcha san'at turlari va janrlari qatori lirikaning ham boqiy mavzularidan biridir. San'at asarlarining qaysi birini olib ko'rmaylik, undagi peyzaj tasvirida albatta inson ishtirok etadi, tabiatning u yoki bu xossasi unga bo'lgan inson munosabati orqali qayta kashf etiladi"¹.

Inson va tabiat o'rtasidagi o'xshashlik ancha yuqori bo'lib, ular bir-birini to'ldirgan holda moddiy hayotning asosini tashkil etadi. Tabiat mavzusi azaldan inson ruhiy olamini ochib beruvchi asosiy vosita vazifasini o'tab kelgan. Undagi tasviriy vositalarga keng o'rin berish orqali badiiy asardagi estetik ruh yanada sayqallanadi. Bunday sayqal ko'plab shoirlarimiz ijodiy merosini boyitgan. Xususan, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqa ko'plab shoirlar ijodi bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, Rauf Parfi ijodida ham tabiat va inson ruhiyati tasviri ajralib turadi. U ruhiyat kuychisi sifatida shuurga muhrlangan xotira va eng nozik tuyg'ularni hech qiyinchiliksiz qalamga olib ko'rsatib beradi. Inson tasviri shoir qalamida yanada sayqal topib, turli xildagi bo'yoqlar orqali bo'yangan tabiat manzaralari esa bevosita inson ma'naviy olam go'zalligi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir inson hayoti va dunyoqarashini qog'ozga tushirar ekan, undagi o'zgarish, yangilanishlarni tabiatning bo'ysundirib bo'lmaydigan hodisalariga chambarchas

¹ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. - Б. 56.

bog‘lagan holda tasvirlaydi. U tabiat va inson tasvirini bayon etish bilan birgalikda, xalqimizga xos bo‘lgan xususiyat va tafakkur qirralarini ham uyg‘un tarzda ochib beradi. Bunday tasviriy butunlik esa go‘zal ijodiy yaratiqni hadya etadi. “Ya’ni, badiiy asardagi tabiat belgilari, pyezajda odamlarning tushuncha va tasavvurlari, ideali davr va jamiyatning xarakterli fazilati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham ,turli davrda ijod etgan turli san’atkorlar asarlarida tabiat obrazi turli mazmunga ega. Bu hol, bir jihatdan ijodiy metod bilan, ikkinchi tomondan, turli xil badiiy-ijodiy yo‘nalishlarni yuzaga keltirgan davr ruhi bilan xarakterlanadi... Zero, tabiat har bir san’at kor asarlarida ijodiy temperament, g‘oyaviy-estetik maqsad hamda estetik prinsiplar taqozosiga ko‘ra, turlicha xarakterda talqin etiladi va tajassum topadi”¹.

Xuddi shunday, Rauf Parfi ham kimningdir ichki dunyosi va go‘zalligini kuylay turib, uning ohangida xirom aylayotgan yomg‘ir shivirini tasvirlay oladi. Sochilgan yomg‘ir donalari kechagi kunday o‘tkinchi bo‘lib yer bag‘riga singiydi. Zero, bu yomg‘ir emas har bir tomchisida olam jahon xotirani mujassam etgan inson umridir.

Yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi,

Tong oqardi, tinmadi yomg‘ir.

Buzilgandek osmon uyi -

Yerga qarab yig‘laydi og‘ir.

Men xonamga kirgayman alhol,

Yuragimda ko‘hna anduhlar.

Derazamga urilar shamol,

Qaydasan sen? Qayda ul ruhlar ?..²

She’rni o‘qiyotgan kitobxon yomg‘ir tomchilarida kechagi kunlarini ko‘rgandek bo‘ladi. Bu damlar qanchadan-qancha shod va bearmon kunlarni olib ketmadi deysiz? Oqshomning sokin va dilga xush yoqar damlarida daraxt

¹ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. - Б. 56.

² Парфи Р. Қайтиш. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 122.

barglarini shitirlatib o'ynayotgan yomg'ir nafasi barchaga yoqsa kerak. Shoir aynan mana shu tabiat hodisasi bo'lgan yomg'ir orqali inson ruhiyatidagi sokinlikni ochib bera olgan.

Barglarda raqs etar shabboda,
O'ynar sabo shaklinda kecha,
Tun bulutga ko'tarib boda
Afsonalar aytar tonggacha¹.

Birgina tunda sodir bo'layotgan voqealar shunday obrazli tarzda tasvirlanganki, siz o'sha holat va ruhiyat ichiga bir zumgina bo'lsa ham sho'ng'ib ketgandek bo'lasiz. Bu satrlarda tun o'zining ko'rgan kechirganlarini boda tutib bulut bilan o'rtoqlashayotganini ko'rishimiz mumkin.

Tanizorim igna uchinda
Ko'zlarimda porlar qora nur.
Menga kecha yomg'ir ichinda
Mash'um xayol kabi ko'rinur,
Ruxsorini yuvgan kechada
Men bilmagan yalang'och shuur².

Lirik qahramon uchun kechagi kun ko'zlaridagi qorong'u zulmatga o'xshaydi. Lekin bu zulmat ichida ham nur porlamoqda. Bu shunchaki nur emas, qora nur. Unga bu kecha yomg'ir ostida ko'z ilg'amas bir xayoldek namoyon bo'ladi. Bu xayollar bir kechada yomg'ir suvlariga yuvilib o'z ruxsorini ko'rsatadi. Shundan so'ng ,u bilmagan yangidan yangi g'oyalar, o'ylar paydo bo'la boshlaydi. Ona tabiat jilvasi bo'lmish yomg'ir, bulutga to'la osmon, qorong'u kecha obrazlari vositasida inson ruhiyatiga xos chizgilar tasvirlab berilgan. Undagi sokinlik butun she'r davomida kishi vujudini qamrab oladi. Jonlangan tabiat tasviri shoir tomonidan jo'ngina chizilmaydi, balki shamolda tebranayotgan qamishlar daryoga allanimalarni shivirlayotganday bo'ladi.

¹ Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б. 3.

² O'sha joyda.

Rauf Parfi faqatgina tabiat hodisalaridagi tuyg'ularni ifodalab qolmay, ko'zlar bilan ham suhbat quradi. Biz bu holatni „Diloromning ko'zlari“ she'rida ko'rishimiz mumkin. Ko'zlarni qalb oynasi deymiz, chunki botindagi so'zlarimiz ko'zlarimizdan namoyon bo'ladi. Rauf Parfi she'rlarida esa ko'zlar „hayqira“ oladi.

Ma'yus edi sening ko'zlaring g'oyat,
Go'yo yo'lsiz o'rmon barglarin to'kib,
Qora yolqinlikda shivirlar oyat,
Ko'zlaringni tinglayapman entikib¹.

Diloromning ko'zlari ma'yus. Bu holat lirik qahramonni yo'lsiz o'rmonga tushib qolgandek esankiratib qo'yadi. E'tibor bering-a, yo'lsiz o'rmon qahramon ruhiyatiga naqadar mos ravishda tasvirlangan. U endi lablar bilan emas, balki ko'zlar bilan suhbatga kirishadi. Odatda, qalban yaqin insonlar bir-birlarini bir qarashda so'zsiz tushunib oladilar. Xuddi shunday, Diloromning ko'zlarida ham qalbidagi bor so'zlari aks etib turibdi. G'amgin nigoh o'z tanidan uzilgan barglar kabi yerga qadalgan. Tim qora ko'zlardan shivirlab aytilayotgan so'zlar oyatdek yangraydi, go'yo.

Bu dunyo barchaga turlicha ko'rinadi. Xo'sh, Diloromning bu qadar ma'yusligiga nima sabab bo'ldi ekan? Shoir keyingi misralarda buning sababini ochib beradi.

Zanjirmi Sharq qizining qo'llarida,
Bir kuch topilmas, kishan sinmasmi,
Sharq qizi, Sharq qizi, endi kulmasmi?²

O'z-o'zidan anglashiladiki, kishanband qo'llar, hurlikdan judo bo'lgan ko'zlar hech qachon kula olmaydi. Shoir ko'zlaridagi yolqinlikni birinchi pog'onaga ko'tarib, qahramonning bor xarakteri va dunyoqarashini ko'rsatib bergan. Tutqunlikda qolgan qiz Turkistonning kulmasligiga sabab, erkinlikning

¹ Парфи Р. Кўзлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 38.

² O'sha joyda.

porloq nurlari esa sovuq mozorlardan olislarga olib ketadi. Malomat toshlari, erksizlik azoblari mangu o'lishiga umid qiladi. U faqat va faqat lablarga emas, ko'zlarga termulib qalb so'zlarini tinglaydi.

Ko'zlaring qa'rida siniq bir nola,
Balkim qafas ichra uyg'ongan navo,
Balkim toshloqlarda qon yutgan lola,
Yo'q, havosi so'rib olingan havo¹.

Ko'zlardan taralayotgan nola unsiz va siniq. Zero, qafas ichra yaralgan navo dilga orom emas, g'amginlik baxshida etadi. Bu holat toshloqlarda qon yutib ungan lolaga o'xshatilyapti. Tutqunlikda ungan nola uchun havo yetmaydi. Nima bo'lganda ham ,qayg'u va alam uni o'z qa'riga tortib ketmadi. Chunki, u olislarda adashgan kemadek o'z baxtini bag'riga chorlaydi. Endi lirik qahramon unga "Ko'zim" deya murojaat qiladi. Qanotlarini keng yoyishini, borliqni oqqa burkangan holda, butun dunyoni shodlikdan porlagan ko'zlarida ko'rishni xohlaydi.

Ko'zlaringning qa'riga yukinar, izlar
Yorug' sohillarni asrdiyda jon.
Mangulik osmoni – bu teran ko'zlar².

O'tkan kunlar shu ko'zlar qa'riga muhrlangan. Asrga tengdosh bu jon endi yorug' sohillarda, mangulik osmoniga parvoz qiladi. Butun olamni teran nigoh-la qarshilamoq uchun oshiqadi.

Shoir ushbu she'rida ("Diloromning ko'zlari") qahramon qiz dunyoqarashini birgina ko'zlar orqali ifodalab bergan. Undagi sokinlik, teranlik kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Aynan mana shu holat va tuyg'ular ketma -ketligi ko'plab she'rlarida aks ettirilgan. Shoir "Yozilmagan she'r erur dilim" – deydi. U o'z joni uchun orom izlab, o'tkinchi hayotda mehmon ekanligini anglagan holda o'z oromiga ilhom pichog'ini sanchadi. Tabiat go'zalliklari, inson ruhiyati tasviri Rauf Parfi

¹ Парфи Р. Кўзлар. – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 39.

² O'sha joyda.

she'rlarida yetakchi o'rinlardan birini egallagan,- desak adashmagan bo'lamiz. Bugun "so'ngan chiroq"dan taralayotgan nur qalblarimizga she'rlaridan anglashilayotgan so'zlar orqali kirib kelmoqda. U so'zga qarata shunday deydi:

Qiynamagil meni, onajon.

Sen – abadiy, men – lahza biroq

Itoat et menga shul zamon

Yo aylagin telbani tuproq¹.

Rauf Parfi bizning xotiramizda mana shu so'zga, she'riyatga bo'lgan cheksiz muhabbati va ayricha ijodi bilan muhrlanib qoldi. Undagi takrorlanmas satrlar shuurimizga qadar singib ketgan. Adabiyot deb atalmish maydonda so'nmas iroda, yuksak iste'dod sohibi bo'lgan Rauf Parfi o'z o'rnini topa oldi. Shoir yaratgan she'rlari orqali abadiyatga dahldor. O'zi bu haqda: "Shoir yo'q, she'riyat yashar" degan edi. Bu bilan shoirning hayoti o'zi bo'lmasa-da she'rlari orqali davom etishini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Haqiqatan ham, bugun shoir nomi uning she'rlari orqali barhayot va umrboqiydir.

2.2. Rauf Parfi she'riyatida ijtimoiy ohanglar

Adabiy jarayonda vujudga keluvchi o'zgarish va yangilanishlar ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Xususan, bunga yangi bir davrning boshlanish natijasi deb qaralsa ham bo'ladi. Har bir davr kishilari qalbida o'zi orzu qilgan ideali yashaydi. Bu ideal turli xildagi shakl va mohiyatga ega bo'lishi mumkin. Zero, qarashlar, falsafiy mushohadalarda ham o'sha ideal tafakkur ildiz otgan bo'ladi. "Demak, idealda mavjud narsa emas, balki bo'lishi istalayotgan narsa aks etadi".² Istak esa hali so'zimiz avvalida aytilgandek, davr talabidan paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining manfaatlari o'sha istakning paydo bo'lishiga zamin yaratib beradi.

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 30.

² Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. - Б. 62.

Insonga berilgan ilohiy ne'matlardan biri bu erk va ozodlikka bo'lgan oshuhtalik tuyg'usidir. Bunga erishish yo'lida ular hamisha kurashib kelganlar. XX asrning oxirlariga kelib kurashuvchanlik ruhi urush, janjal bilan emas, atomdan ham kuchli bo'lgan adabiyot yordamida amalga oshirildi. Chunki, adabiyot vujudni kir va chirkinliklardan poklaydigan, uni Haq va haqiqat sari yetaklovchi asosiy vosita sanaladi. Unda millat dardi, jamiyat o'y-tashvishlari o'z ifodasini topgan. Xususan, 80-yillar adabiyotiga nazar tashlasak, kinoya, gap tagida gap tarzida so'zlarini she'rga ko'chirish anchayin kengayganligiga guvoh bo'lamiz. Ijodkorlarimiz shu yo'l bilan tuzumga bo'lgan munosabatlarini namoyish etishdi. "Endi lirikamizni voqea-hodisalar mohiyati zahiridagi ichki – botiniy jarayonlar ko'proq qiziqтира boshladi"¹.

She'riyatning bunday ijtimoiylashuvi Rauf Parfi ijodiga ham begona emas. Chunki u millat dardini o'ziniki deb hisoblagani holda, jamiyatda sodir bo'layotgan yolg'onlarga jim qarab tura olmadi. Undagi ijtimoiy dard qon-qoniga singib, butun tanasini asir olgan. Tana asir bo'lsa-da, ruh ozod. U o'z xayollari va orzulari qanotida osmonlarga parvoz qiladi. Dunyoda bo'layotgan nohaqliklardan qochib ko'klarga uchadi. Afsuski, bu parvoz uning ruhi orqali ko'tarilgan, tana esa hamon zaminda. Zamin uni dardi va g'ami ila muallaq tutib turibdi. Aynan mana shu zaminga bo'lgan muhabbat shoirni o'z jamiyatidan uzoqlarga olib keta olmadi. Zamin uning xalqi, ona yurti demakdir. Shuning uchun ham, jamiyat dardi shoir dardiga aylangan, ya'ni ko'pning dardi – ijtimoiy dardni keltirib chiqargan.

Shoir atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga qarshi she'riyat yo'lida turib kurash olib bordi. Zero, "she'riyat ham, barcha dinlar kabi odamlar ongi-shuurini, ruhoniyyatini poklaydi. Ko'ngilga Haqni tanish, jamoliga yetishish ishqini joylaydi. Rauf Parfi she'riyati ma'rifiy-ruhoniyy tarbiyada ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu borada millatning ongi, dunyoqarashiga milliy ruh bilan yo'g'rilgan istiqlol

¹ Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. –Т.: Фан, 1979. - Б. 157.

g‘oyalarini singdirishdagi rolni alohida ta’kidlash joiz”.¹ Shaxs ma’naviy kamoloti ham ayni mana shu g‘oyalar atrofida kamol topgan.

Shoirdagi ijtimoiy dard she’rlari tag matni orqali ifodalangan. Tag matn zahirida esa Turon – Turkiston dardi yotibdi.

Bu dard davr talabi yanglig‘ vujudga kelgan hodisa sanaladi. Ruh va tananing kelisha olmasligi, inson “men”i bilan kurashuvi ham ayni mana shu davr sabab yuzaga kelgan jarayondir. O‘z muhiti va olamidan ayri keta olmagan shoir tuyg‘ularini she’rlari orqali bayon qiladi:

Achchiq shamollarga sotdim o‘zimni.

Shamollar o‘ynasin, tanamni teshib².

Ha, “shunday murakkab sharoitda Rauf Parfi “aytsa bo‘ladigan”, zamona ko‘taradigan gaplarnigina ayta oldi, qolgan barcha dard-u armonlari daftarlaridagi bitiklarda, ko‘plari yuragining tub-tubida qolib ketdi”³.

Shuning uchun ham ,shamollar tanasini teshib aytar so‘zlarini o‘qib olishini istaydi. Hech bir tuzum Haq yo‘lini to‘sa olmaydi. Haqiqat qandaydir yo‘llar bilan bo‘lsa-da, yuzaga chiqadi. Yana u inson hayoti xususida bo‘lsa. Rauf Parfi ham aytar so‘zlarini imo-ishora, timsol va obrazlar orqali bayon qildi. O‘ziga xos ifodaviylik haqiqatni ochib berishga zamin yaratdi. Shoirdagi ana shunday insoniy dard she’rlaridagi tag matn orqali ifodalangan. Bunday tag matn zahirida Turon, Turkiston dardi yotibdi.

Xotiramning ichinda parchalanur, arralanur, kesilur,

O‘zbekim, tojigim, qozog‘im, qirg‘izim, turkmanim,

uyg‘urim, ozorim – turkim.

“Rauf Parfi she’riyatida Turkiston qayg‘usi, turk birligi g‘oyasi ustuvor yo‘nalish kasb etadi”⁴. Shoirni qiynagan darddagi o‘zak tomir ham ana shunda . U erk va birlik tarafdori. Shoir bu birlik sari ma’naviyat deb atalmish yo‘ldan

¹ Парфи Р. Сакина. Сайланма. – Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 47.

² Парфи Р. Кўзлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 57.

³ Шодмонов О. Адабиёт қисматдир. – Т.: Шарқ, 2014. – Б. 103.

⁴ O‘sha joyda.

odimlaydi. Kishilarning ma'naviy yetukligi asosida o'z orzulari ro'yobini ko'radi. Rauf Parfidagi ma'naviyat bu – she'riyatdir.

Allohn tan olmagan kommunistik bashariyat tanib
olsin ilohiy, deb seni, She'riyat.

Sobiq sho'ro vakillari xudosizlik jamiyatini tuzmoqchi bo'lgan bir paytda, shoir she'riyatni iymon-e'tiqodini tutib turuvchi poydevor deb bildi. Demak, poydevor mustahkamligi e'tiqodning butunligiga sabab. Shunday bo'lsa-da, u she'r yo'lining naqadar mushkul ekanligini har lahzada anglab turdi.

Rauf Parfi ulug' hind shoiri Muktibodh tilidan o'z ona yurti dardini kuylash bilan birgalikda, dunyoviy dardni ham olib chiqqan. Sinchkov kitobxon she'rni bir o'qishdayoq, undagi tag matnni uqib oladi. She'r hind mifologiyasida barbod va bunyodkorlik xudosi Shivaga qilingan iltijo bilan boshlangan.

O, Shiva! Xaloskor Shiva, madad ber,
Tokay shundoq qolur muqaddas bu yer
Kunduz talvasada, kecha jon uzgan,
So'qir vujudlarning sahparlari yo'q¹.

Rauf Parfi olis hind zaminida bo'layotgan tutqunlik azoblarida o'z yurti mushkulotlarini ko'rgandek bo'ladi. She'rda Hindiston orqali Turkiston dardi olib chiqilgan.

Yurakning eng chuqur qorong'usida
G'or ichra berkingan singari qo'rquv.
Ul bo'shliq, bemantiq mehrob imdodi,
Undan o'lim hidi gup etib urar.
Umidning, ilhomning, gulning jallodi
Qonli qilichini sernab yugurar².

Demak, sodir bo'layotgan qiynoqlarga yo'l ochgan narsa - bu qo'rquv hissi. Tuzum o'zining qonli qilichi bilan insonlarni porloq kelajak sari olib chiquvchi

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 174.

² O'sha joyda.

umid, ilhom deb ataluvchi buyuk ne'matlarning jallodiga aylangan. Chunki, ular orqali inson o'zini anglaydi va shaxs qadr- qimmati yuzaga chiqadi.

Nafosat – bir latta etik ichinda,
Ko'rki, insonlarning qimmati bir pul!

Mustamlaka bo'lgan yurt insonlari hech qachon yaxshilik ko'rmaydi. O'sha damlarda qadr-qimmat inson sha'ni kabi tushunchalar keraksiz va ma'nosiz quruq so'zlarga aylanib qolgandi. Chunki, hech bir kelgindi o'zi bosib olgan yurti odamlari boshini silamaydi, silasa ham ,buning tagida qandaydir manfaat yotgan bo'ladi.

Tili kesilgandek chuldurar birov,
Suvab, chalpib borar bosgan izini.
Unga odam zoti kela bilmas dov
G'ayri tilda aytar Vatan so'zini¹.

Mustamlaka siyosatidan yana biri bu bosib olgan yurtida o'z tili va madaniyatini o'rnatish g'oyasidir. Ana shundagina, ularni o'z ortidan ergashtirib millatni mahv etishlariga zamin yaraladi. Bir millatni tarix sahnasidan olib tashlash uchun uni qirib yuborish shart emas. Tili va dinini yo'q qilishning o'zi kifoya. Ular ham buni anglagani holda, ruslashtirish siyosatini olib borishdi. Shunday damlar ham bo'ldiki, ona tilida gapirish zamondan orqada qolish, madaniyatsizlik deb qaraldi. To'g'ri, o'zga tillarni o'rganish ham kerak. Lekin o'z tilini unutish orqali emas. Bu zamonaviy manqurtlik belgilaridan biri sanaladi. Shunday jarayon Hindistonda ham, Turkistonda ham sodir bo'ldi. Shoir ikki zamin dardi, ohini dunyoviy fojia sifatida olib chiqqan.

Ul soxta bir shoir, qartabon, laqqi,
Cho'talga onasin qo'yar garovga.
Ko'ksini changallab yaltoq munaqqid
”Daho iste'dod” deb ko'tarar g'ovg'a².

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 175.

² O'sha joyda.

Shoirning yuragidan otilib chiqqan bu misralar tag ma'nosida, o'z yurtini sotib ketgan manfur kimsalarga bo'lgan nafrati yotibdi. Ularda insof-diyonat kabi insoniy hislar yo'qki, onasinida garovga qo'yishga tayyor. She'rga ona obrazi bejiz olib kiritilmagan. Chunki, azaldan Vatan, til kabi tushunchalar ona so'zi bilan yonma-yon keladi va ulug'lanadi: ona- Vatan, ona tili kabi. Onani o'yinga qo'yish Vatan va tilni ham boy berish demakdir.

Men shoir shu ojiz holimda yana,
She'rimni tinglagan devor-da soqov¹.

Tuyg'ulardagi bandilik ko'rinmas zanjir kabi vujudini kishanlarkan, shoir o'zidagi bunday ojizlikdan o'kinib qiynaladi.

Millatim qalbiga kirsam bemalol.
Sotilgan vijdonlar, nomuslar yig'lar...
Ko'zimga hurlikning shabnami indi.
Faqat o'liklar-ku abadiy uxlar,
She'rim, kechalarni kesib uch endi².

Yolg'onning umri qisqa bo'ladi, deyishadi. Xuddi shunday, oradan vaqtlar o'tgach sotilgan vijdon, nomus qilmishlari mevasini ko'rib, o'kinib yig'laydi. Tirik insonlarning o'liklardan farqi shundaki, ular g'aflat uyqusidan uyg'onib, atrofda bo'layotgan voqealarni idrok eta oladilar. Bu esa tutqunlikning umri qisqarib, hurlik shabadalari yela boshlaganidan darak. Endi haq so'z to'rt devor orasida emas, insonlar qalbiga tunda qushday uchib kira oladi. Tun tasviri esa tuyg'ular hali u qadar oshkoralik bilan bayon etilmayotganligidan nishona.

Qachon tong otadir mening yurtimda,
Qachon ado bo'lur g'amga botgan g'am?!..
Quyoshning elchisi turar yo'lakda,
Tashrifidan bo'lmish chamanlar bunyod.
Dunyo ko'zi yorar olov yo'lakda

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 175.

² O'sha joyda.

Uyqudan uygʻonur tirik bir dunyo¹.

Shoir yurtida tezroq tong otib, gʻamga botgan gʻam ado boʻlishini xohlaydi. Quyoshning tashrifi olamni yanada gullatib, dunyoning koʻzi yorishiga sabab boʻladi. Dunyo koʻzi yorishi esa yangi bir olam, yangi bir davr boshlanajagidan darak.

Oʻzidagi yagona ilinjga aylangan sheʼriyat orqali shoir butun oʻy-fikrlari, dardini qogʻozga toʻkib sochadi. Zeʼro, uning uchun “Sheʼriyat ibtido, sheʼriyat – oxir”.

Haq uchun, muborak Haqiqat uchun

Faqat sen haqdirsan! Zamonlar oʻtar.

Yetar koʻksingga ur qasos qilichin!²

“Shoir koʻnglining tub-tubidan otilib chiqqan bu zalvorli eʼtirof, bu ichki nido xotirjam, hayajonsiz oʻqish mumkin emas. Zero, koʻp asrlar davom etgan istilolar, zulmlar, qatagʻonlar tufayli milliy gʻurur toptalgan, qaddi bukilgan, oʻzligini unutayozgan, ong-u shuuriga qullik psixologiyasi singdirilgan xalqining ozod boʻlishini, oʻzligini tanishini, roʻshnolik koʻrishini istagan, oʻz millatini chin yurakdan sevgan, millati bilan faxrlangan, millatiga yukungan, millatning bagʻri butun boʻlishini astoydil xohlagan milliy shoirgina shunday deya oladi”³.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi sheʼrlari purmaʼno, gap tagida gap tarzida usta sanʼatkor mahorati ila yaralgan. Shoirdagi ijtimoiy dard sheʼrlari tag matni orqali sheʼrxonga yetkazib berilgan. U oʻzida shoirlik masʼuliyatini chuqur anglagani holda, qalblarimizni asir etdi va bir umrga xotiramizning eng eʼzozli oʻrinlaridan birini egalladi.

2.3. Shoir ijodida badiiylik mezonlari

“Adabiyot tarixida millatni uygʻotgan shoirlar sanoqli boʻlgan. Bu tabiiy, albatta. Choʻlponni oʻziga ustoz sanagan Rauf Parfini sira ikkilanmay millatni

¹ Oʻsha joyda.

² Парфи Р. Кўзлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 86.

³ Шодмон О. Адабиёт қисматдир. – Т.: Шарқ, 2014. - Б.104.

uyg‘otishga xizmat qilgan shoirlar sirasiga kiritish mumkin”.¹ Siyrati suratida aks etgan shoir tuyg‘ulari, she‘rlari yordamida yanada kengroq ochib berilgan. Bu esa undagi ta’sir kuchi va jozibadorlikni hamin qadar sayqallagan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Shoirdagi badiiylik, so‘zlardan san‘at korona foydalanish mahorati boshqa ijodkorlarga qaraganda andek mulohaza bilan yondashishni talab qiladi. Chunki, Rauf Parfi she‘rlari duch kelgan kitobxon qo‘lida o‘z sirlarini bayon etib qo‘ymaydi. Buning uchun charxlangan tafakkur va xos kishilar nigohi zarur. Shoir she‘rlaridagi go‘zallik va emotsional ta’sir kuchining mungli ohanglari esa kishi ruhiy olamini beixtiyor qamrab oladi. Bu, albatta, shoir badiiy mahoratining qay daraja yuksak pog‘onalarda turishidan nishona.

Inson ruhiy olamini keng planda tasvirlab berish, shoir ijodidagi yetakchi mavzulardan sanaladi. “Rauf Parfining aksariyat she‘rlarida turli xarakterdagi tafsilot, fikr va hissiyotlar silsilasi estetik jihatdan yaxlit bir obrazga mujassamlashadi”². Bu esa o‘sha yaxlitlikni buzmaganda, tuyg‘ular izchilligini ta’minlaydi.

Shoirdagi ijodiy mahorat qirralaridan yana biri, milliy lirika bilan jahon adabiyoti an‘analarini hamohang tarzda olib borganligidir. Hamohanglikdan taralgan kuy o‘z navbatida, kishini falsafiy salohiyat sari yetaklaydi. Chunki, bu shoir ko‘nglining tub-tubidan otilib chiqqan nidodir. Bu nidoni tinglay olish uchun shoir shaxsiyatiga ham andek nigoh tashlab qo‘yish zarar qilmas. Negaki, shaxsiyat tushunchasi kishi yaratgan yaratig‘iga ham “yuqadi”. Shundan kelib chiqqan holda shoir “men”i idrok etiladi.

Rauf Parfi asliyatida davr va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Bu esa shoirning estetik ideali bo‘lgan, u topingan, e’tiqod qilgan - so‘z yordamida yuzaga chiqadi. “Rauf Parfi uchun so‘z – ham so‘z, ham she‘r. She‘r so‘zning, hukmning bir shakli. Ushbu shakldan shoir ilhom vositasida belgisiz zuvala tayyorlaydi va bizga

¹ O‘sha manba. - B.105.

² Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979. - Б. 133.

uzatadi”¹. Ilhom yordamida yaralgan uzatiq shoir badiiy mahorati taftida obdon pishib yetilgan. Bu yaratiqdan har kim o‘z hovuchiga siqqanicha olib bahramand bo‘ladi. Ya‘niki, shoirning badiiy mahorati va estetik go‘zalligidan tafakkuri yetganicha qabul qiladi.

Shoir so‘zlardan jonli tasvir yaratib, undagi ruh va haqqoniylikni real voqelik bilan bog‘lagan holda ifodalab beradi. Chunki so‘zlar ham yashaydi, nafas oladi, vaqti kelganda o‘ladi ham.

Rauf Parfi she‘rlarida so‘z mavzu darajasiga ko‘tarilgan. “Shu bois turli yillarda yaratilgan she‘rlada so‘z haqida “So‘z mening ko‘ksimga sanchilar, hayhot!..”, “...Menda majol yo‘qdir, menda bir so‘z yo‘q”, “Zavqlarga to‘lar u, bir so‘zni izlar...”, “Loyiqmanmi So‘zga, bilmadim, netay?”, “Sochilgan soch kabi so‘zimni aytdim”, “Qalamdan o‘ch olding, So‘zini o‘yding”, “Bir so‘z qoldi menda hayr endi” kabi ifodalarni qo‘llaydi”². Bu uning so‘zga qanchalik e‘tiborli bo‘lgani va tesha tegmagan tashbehlardan ustalik bilan foydalana olganligini ko‘rsatib beradi. Misralarning har biridagi mahorat ,so‘z ustasining naqadar teran salohiyat egasi ekanligidan dalolat.

Xususan, “Rauf Parfi estetikasida san‘atning, so‘zning, ma‘rifiy- tarbiyaviy roli, ahamiyati masalasi alohida o‘rin tutadi”³. Bu o‘rin uning uchun e‘tiqod darajasiga ko‘tarilgan. Shoir so‘zni shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, undagi mayda detal va o‘xshatishlar kishini hayratga soladi.

Bir so‘z bor

Beg‘ubor tong kabi go‘zal,

Tong chog‘i ochilgan g‘uncha kabi,

G‘unchada shabnam kabi musaffo⁴.

¹ Курбон Ш. Рауф Парфи сабоқлари. - Т., 2014, - Б. 54.

² N.Karimov va b. Adabiyot umumiy o‘rta ta‘lim maktablari: 11-sinf uchun darslik. T.: O‘qituvchi, 2004. - B. 343.

³ Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Муҳаррир, 2013. - Б. 31.

⁴ Парфи Р. Қайтиш. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 26.

“Shoirning eng katta saltanati – So‘z. Undan mahrumlik – yo‘qlik. Bu so‘z shunday qudratki, u o‘z yaratuvchisini o‘ziga bo‘ysundiradi. So‘zga qaysarlik qilib bo‘lmaydi, uni yengib ham bo‘lmaydi”¹.

Zero, u shunday go‘zal yaratiqki, erta tong ochilgan g‘uncha kabi nafis. Unda kirlik, chirkinlik yo‘q. Shoirni so‘zga bergan qiyosidan ko‘ngli to‘lmay, keyingi misrada unga yanada noziklik baxshida etadi. So‘zni g‘uncha yuzida turgan shabnam misol musaffo deb biladi. Yana u butun umrimiz mana shu so‘zlar orasida o‘tishini anglab ,ularni “peshonada to‘plangan ajin”larga ham o‘xshatadi. Balki, shuning uchun ham shoir “Yashamakni o‘rgatar so‘zlar” der. “Ana shu so‘z Rauf Parfini umrining oxirigacha yondirib kuylatdi. Bu – Haq So‘z edi. Shoirning ixtiyori o‘zida emas edi, uni mana shu so‘z boshqarardi”.²

Faqatgina o‘z erkini ko‘ngliga topshirgan insonlarnigina, so‘z boshqarishi mumkin. Bu esa shoirga tuzum va davrning oqimiga qarshi suzayotgan baliqcha qismatini yuklaydi. Shunday qismat uning estetik idealini ham ro‘yobga chiqargan bo‘lsa, ajab emas.

Zero, “Shoirning badiiy-estetik tajribasi sho‘ro mafkurasining ta‘qib va tazyiqlari ostida ongimizga, dunyoqarashimizga qarshilik to‘lqinini olib kirdi... Bu jarayonda Rauf Parfining ijtimoiy-siyosiy qarashlari badiiy-estetik tuyg‘usi omixta shakllandi, kamol topdi. Shu boisdan ham, ularni bir-biridan ayirish yoki bo‘lak-bo‘lak o‘rganish mumkin emas... Shoir estetik qarashlarining ildizi xalqimizning ming yillar mobaynida qaror topgan ijtimoiy, badiiy, falsafiy tafakkuri manbalariga borib tutashadi. Undan hayot suvini ichadi”.³ Aynan mana shu badiiy hayotiylik sabab undagi tuyg‘ular kishini bezdirib qo‘ymaydi. Bu o‘z ustida ishlash, badiiy mahoratini yanada sayqallash asosida yuzaga keluvchi jarayon sanaladi.

Shoirdagi badiiy-estetik mahoratni his qilish uchun she‘riyatiga nazar solishning o‘zi kifoya. Rauf Parfi she‘rlarida deyarli jo‘n ifodaga duch kelmaysiz.

¹ Олтинбеков О. Рауф Парфининг адабий-эстетик қарашлари. – Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 206.

² Олтинбеков О. Рауф Парфининг адабий-эстетик қарашлари. – Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 209.

³ Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 29.

Balki, bu ham badiiy – estetik mahorati yanglig‘ yuzaga kelgan hodisadir. “Sabr daraxti” turkumiga kituvchi “Sumbula” she’ri mana shunday ifodaviylik xususiyatiga ega.

Qo‘y, bo‘ldi. Gapirma. Kechirma meni.

Ko‘zingdagi toshni g‘ichirlatma, bas.

Quyilmoqda kunduzning achchiq tuni,

Ichib tashlamasam men uni bo‘lmas.

To‘xta. Bas qil. Gapirma. Bo‘ldi.

O‘zim gunohkorman. Mendan – bu ko‘rlik.

Zangor yaprog‘larning bag‘rida sho‘rlik

Kecha shovullagan shamollar o‘ldi¹.

Dastlab she’rdagi shakl kishi e’tiborini tortib, har ikki bandning birinchi misrasidagi gaplar buyruq ohangida yangraydi. Bunday shakliy ifoda asosan telegraf yozish jarayonida qo‘llaniladi. “Ko‘zingdagi toshni g‘ichirlatma, bas” misrasi esa kishi tafakkurini sinovdan o‘tkazadi.

Ko‘zda toshning mavjudligi nechog‘li haqiqatga yaqin? Biz bilamizki, tosh ma’lum bir moddalarning jipslashuvidan vujudga kelgan qattiq predmet sanaladi. Xo‘sh, inson ko‘zidagi toshning yaralishiga nima sabab bo‘ldi ekan?

Ko‘nglimizdagi so‘zlarimiz ko‘zlarda aks etgani kabi, voqelanmagan so‘zlar ham ko‘zlarda qolib ketadi. Bu esa yig‘ilib-yig‘ilib qalb jarohatidan tuzilgan qattiq toshning yaralishiga sabab bo‘ladi. Shoirdagi jarohat davr va ijtimoiy muhit ta’sirida vujudga kelganligini hisobga olsak, bu toshlarning mavjudligi shu qadar real ahamiyat kasb etadi. Ular qachonki tuzalsa, ya’ni dardiga davo topa olsa ,ko‘zlardan achchiq tutun kabi quyilib tushadi. Tutunning achchiqligi ko‘z yoshlarining vujudga kelishidan darak.

Rauf Parfi she’riyatida bunday munozarali misralar talaygina. Bu shoirdagi ijtimoiy dardning nechog‘lik kuchli ekanligidan xabar beradi. She’rda e’tibortalab

¹ Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 65.

shunday misralar bor: “Xomush tortib, junjikib qo‘ydi shamol”, “Sovuq osmon yuzida izg‘ir ko‘zim, xotiramning tasbehlari tizildi. Qayg‘uliman qonga qorishgan so‘zim”, “Kecha shovullagan shamol o‘ldi”, “So‘zlar, so‘zlar qolur bo‘g‘zimda qotib”, “Ilon sochlaringni shamol o‘ynaydir”, “G‘imirlar kechaning qop-qora tani”, “Daryo bo‘lib sening ko‘zlaring boqar”, “Daryoga lim to‘lib jasadim oqar”. Bunday tashbeh va o‘xshatishlar kishi metaforik tafakkurini chiylab, shoir badiiy mahorati qirralarini yorqinlashtiradi.

She‘r shoir qalbida kuchli bir og‘riq, dunyoviy dard bilan tug‘iladi. Uning shakl-shamoyil, mazmuni o‘sha dardning naqadar kuchli va chuqurligiga bog‘liq. Balki, shuning uchun ham shoir “Rostmi shu? She‘r tug‘ar emish alamlar”, - der. Uning uchun bu alam tuganmas va oxiri yo‘qdek.

Tugatib bo‘lmas hech bu dardni ichib,
Yorilgan yaradan chechaklar o‘sdi.
Yuragingning yirtiq ko‘ylagin yechib,
Bag‘ringga bosarsan – bormisan, do‘stim?¹

Shoirdagi tuganmas dard nimada ekan? Shunchalar chuqur va eski ekanmi u yaraga aylanib yorilish darajasiga kelsa? Yorilgan yaradan chechaklar o‘shisini nima bilan izohlash mumkin?

Demak, lirik qahramon qalbida yashab kelayotgan bu dard-u alam yuragini tilka- pora qilgan. U “Yuragingning yirtiq ko‘ylagin yechib”, anchadan beri intiqib kutayotgan do‘stini bag‘riga bosishga tayyor. Lirik qahramon orzu qilib kutayotgan diydor nimada mujassam ekanligi keyingi badda ayonlashadi.

Har kim o‘z qalbiga o‘zidir xoqon,
Baribir, men seni sevib sizlarman.
Ehtimol nohaqman, ehtimol haqman –
Muqaddas Turkiston so‘zin izlarman².

¹ Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 191.

² O‘sha joyda.

Barcha savol, dard-alamlar uning uchun muqaddas bo'lgan Turkiston atrofida o'z yechimini topmoqda. Bu so'z uni yonib yashashga, olg'a qadam tashlashga undaydi. "Rauf Parfi she'riyatida Turkiston qayg'usi, turk birligi g'oyasi ustivor yo'nalish kasb etadi"¹. Aynan mana shu yo'nalish uning uchun eng katta dardga aylangan.

Shoir "So'z mening ko'ksimga sanchilar, hayhot!.." – deydi. So'zdan qolgan jarohat yuragida uyg'ongan kuchli og'riqqa sabab. Endi lirik qahramon bunday qiynoqlardan qutulish uchun najot izlaydi.

Yurak deb atalgan og'riq bu – najot,
Ko'krak qafasimiz – najot qal'asi².

Rauf Parfi mana shunday majoziy timsollar asosida o'z tuyg'ularini bayon etar ekan, ular shoirni Haq, Haqiqat sari yetaklaydi. Zero, undagi eng ilohiy tuyg'u va istak ham shu so'z zahirida mujassamlashgan. Bunday tuyg'ular qandaydir yo'l bilan bo'lsa-da, turli xildagi shakl va belgilar asosida kitobxon shuuriga muxrlanadi.

Shoir she'rlariga ko'r-ko'ronalik bilan yondashish orqali ta'sirlanib bo'lmaydi. O'z vaqtida uqib olinsagina, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

"Rauf Parfi estetik qarashlarining ildizlarini, bahramandlik oqimlarini yolg'iz tog'- tosh-u buloqlardan izlamang. U Mag'rib-u Mashriq, kunchiqar-u kunbotar badiiyatining mumtoz namunalaridan hayot suvini ichadi. Shu boisdan ham, shoirni jahon estetikasidagi timsollar realizmiga, tuyg'ular realizmiga moyil san'atkorlik ko'proq qiziqtiradi. Xususan, realizm estetikasiga ko'ra, shoirni jahongir zulm-istibdodga qarshi shaxs erki masalasi, tabiatning to'rt fasliga monand kechinmalar tug'yoni, hayoti band etadi. Shu boisdan ham, shoir badiiy asarlarining estetik qimmatini biladi"³.

¹ Шодмонов О. Адабиёт қисматдир. – Т.: Шарқ, 2014. - Б. 103.

² Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 191.

³ Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Муҳаррир, 2013. - Б. 34.

Bunday badiiy va estetik qarashlar shoir asliyatini qamrab olgani holda, undagi asl go‘zal, insoniy tuyg‘ularni yuzaga chiqargan. Bu tuyg‘ular uning hayot mazmuniga aylanib qolgan. Shoirdagi zamin va samoga bo‘lgan muhabbat ham ana shu tuyg‘ular orqali o‘quvchi qalbiga singiydi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, shoirdagi faylasufona qarash va idrok o‘tkir nigoh bilan kishi tuyg‘ularini taftish qiladi.

Katta dard va haqqoniylikni ifodalash uchun shoir ijodiy laboratoriyasida yaratgan asarlarini qayta-qayta tahrirdan o‘tkazganligi sabab, ularning zuvalasi pishiq. Bir she’r ustida kunlab, balki, oylab bosh qotirgan bo‘lsa, ajab emas. Bu esa shoir o‘z ustida ishlagani, o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lganligidan darak beradi. Balki, shuning uchun ham shoir badiiy mahorati va estetikasi chuqur o‘yga toldirar. Xilma-xil shakl va ifodalar uning fikriy tafakkur tadrijini sayqallagan. Shoirdagi eng katta sehr e’tiqodi mustahkamligidadir. Bu e’tiqod so‘z orqali Turon-Turkistonga borib taqaladi. Mana shu ikki tushuncha asosida Rauf Parfidagi badiiy-estetik tamoyillar yuzaga chiqib, yaxlit ahamiyat kasb etgan.

Rauf Parfi shaxsiyati va she’riyatidagi munglilikni har kim o‘zicha mulohaza qiladi. Balki, o‘sha munglilik ham mana shu e’tiqod orqali vujudga kelgan hodisadir. Lekin bu holatni “pessimizm deb tushunmaslik va qabul qilmaslik lozim”¹.

Jamiyatda sodir bo‘layotgan dilxiraliklarni shoir qalbdan his qiladi va she’rlari orqali tasvirlab beradi. Zero, uning uchun “Shoir. Ilhomning bir qo‘lida xanjar”, bir qo‘lida esa zumurrad, marjon bilan yo‘lga chiqqan sayyohdir. Sayyohning topgan boyligi mana shu – badiiyati. Yo‘qotganlari esa bo‘g‘zida qotib qolgan so‘zlaridir.

Shoir shaxsiyati kishi ko‘z oldida teranlashgani sari undagi badiiy-estetik go‘zallik yanada yorqinlashadi. Rauf Parfidagi so‘nmas harorat tafti har bir

¹ Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013. - Б. 43.

she'rxon qo'lida mutolaa qilinayotgan she'rlari orqali siyratimizga singib kirdi va uning ajralmas bir bo'lagiga aylanib ulgurdi.

XULOSA

XX asr o'zbek she'riyati jahon adabiyoti sahifasida olib qaralishi mumkin bo'lgan poetik hodisadir. Bu davrda yaratilgan she'riy asarlar, davr yuzaga chiqargan adabiy shaxsiyatlar mohiyat e'tibori bilan jahon adabiyoti va adabiy siymolar bilan bo'ylasha olishiga hech shubha yo'q. Ana shunday ulkan adiblar qatorida Rauf Parfining nomi ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Shoir ijodida mavzular hayotning o'zi qadar rang-barang. Ularda shoirona mushohadaning qamrovi keng: ezgulik va yovuzlik, shafqat va mehrsizlik, inson va tabiat, urush va tinchlik, ajdodlar va avlodlar, muhabbat, Vatan... tilga olinadi, tom ma'noda Olam va Odamning o'ziga xosliklari inkishof etiladi.

Insonning ruhoniyl erkinligi masalasi Rauf Parfi ijodining o'zak mag'zini tashkil etadi. Shu boisdan ham, shoir lirikasida tuyg'ular hayotini, kechinmalar manzarasini, holat-kayfiyatlar suratini chizish alohida tamoyilga aylangan.

Timsolli, majoziy lirizm Rauf Parfi uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi, deyish mumkin. Davr voqeligiga, jamiyatdagi siyosiy vaziyatga, hodisalarga, inson sha'ni-erkini, haqini oyoqosti etuvchi, adolatsizlik ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi ijtimoiy zulmga qarshi tug'yon Rauf Parfi she'rlarida tuyg'ular realizmi ustuvor deyishga asos beradi. Rauf Parfi XX asr o'zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darajasiga ko'targan, sof tuyg'uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omixtalashtirgan betakror uslub yaratdi.

Shoir estetikasida vijdon erkinligi masalasi alohida o'rin tutadi. Ruh va ko'ngil hurriyati, erk fenomeni R.Parfi estetikasida ijtimoiy-falsafiy kategoriya darajasida badiiy tadqiq etiladi. Xususan, ong-shuurimizdagi ko'rinmas, sezilmas temirdek qo'pol va qattiq bir kuch bizni metin iplari bilan bog'lab turadi. Rauf Parfi lirikasidagi So'z, Ko'z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar tagdor, purma'no mazmun ifodalashiga ko'ra timsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi fojiali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida

o'chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo'mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat R. Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir.

Rauf Parfi ijodida ham tabiat va inson ruhiyati tasviri ajralib turadi. U ruhiyat kuychisi sifatida shuurga muhrlangan xotira va eng nozik tuyg'ularni hech qiyinchiliksiz qalamga olib ko'rsatib beradi. Inson tasviri shoir qalamida yanada sayqal topib, turli xildagi bo'yoqlar orqali bo'yangan tabiat manzaralari esa bevosita inson ma'naviy olam go'zalligi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir inson hayoti va dunyo qarashini qog'ozga tushurar ekan undagi o'zgarish, yangilanishlarni tabiatning bo'ysundirib bo'lmaydigan hodisalariga chambarchas bog'lagan holda tasvirlaydi. U tabiat va inson tasvirini bayon etish bilan birgalikda xalqimizga xos bo'lgan xususiyat va tafakkur qirralarini ham uyg'un tarzda ochib beradi. Bunday tasviriy butunlik esa gozal ijodiy yaratiqni hadya etadi.

Rauf Parfi O'zturk she'riyatida so'z konkret ma'no tashib kelishidan tashqari, inson shaxsi va ma'naviyatidagi muayyan go'zallikni, timsolli yoki ibratli mazmunni ifodalashiga ko'ra ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. R.Parfi izlanishlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, kosa tagidagi nimkosa tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik, ayniqsa, ustuvor.

She'riyatdagi davr tushunchasi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liqlikdagi inson hayoti bilan belgilanadi. She'riyat inson uchun yaratilar ekan, shoir uchun davr miqyosi zamondoshlari hayoti, inson taqdiri bilan xarakterlanadi; insonning bugungi hayoti, tushuncha va tafakkuri bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bunday jarayon va voqeliklarni tasvirlab berish har bir ijodkor faoliyatida kuzatiluvchi hodisa sanaladi.

Xususan, Rauf Parfi ham davr mavzularidan to'liqlangan holda, ko'plab ijodiy namunalari bilan milliy adabiyotimiz xazinasini boyitdi. Shuningdek, davr va zamon birligi asosida o'z ideali, ruhoniylar qarashlarini she'rlari orqali keng kitobxon ommasiga yetkazdi.

Rauf Parfi ijodidagi eng muhim yangiliklardan biri uning satrlaridagi kutilmagan obraz, o'xshatish, istioralar orqali o'z fikrlarini tasvirlashi edi. U davrga nisbatan o'z fikrlarini ochiqdan – ochiq yuzaga chiqarishdan cho'chimadi va ana o'sha obrazlar asosida she'rlari orqali ifodalab berdi.

Rauf Parfi ijodiy faoliyati undagi go'zal ijodiy namunalar shoir shaxsiyati va she'ryatini yanada yaxshiroq anglashga ko'mak beradi. Ushbu fikrlarimizni umumlashtirish orqali, shaxs, davr va she'riyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari kelib chiqmoqda. Ular bir-biriga ta'sir etgani holda, ijtimoiy muhitni yuzaga chiqaradi. Shaxs-shoir esa o'sha muhit asosida harakatlanadi.

Xulosa o'rnida yana shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Rauf Parfi ijodi ijtimoiy muhit va davr manzaralariga keng o'rin berilgan holda yaratilgan. Undagi har bir yaratiq o'z mazmun-mohiyati nuqtayi nazari bilan hamma davrlar uchun ham qadrli va azizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

- 1.1. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008.
- 1.2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор — маънавиятга, келажакка эътибор. — Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
- 1.3. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

II. Ilmiy-nazariy va badiiy adabiyotlar

- 2.1. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-жилд. Эпос. — Тошкент: Фан, 1991.
- 2.2. Аристотель. Поэтика. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.
- 2.3. Боров Ю. Эстетика. — М.: Политиздат, 1988.
- 2.4. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. — Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
- 2.5. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. — Т.: Маънавият, 2000.
- 2.6. Норматов У. Ижод сеҳри. — Тошкент: Шарқ, 2007.
- 2.7. Олтинбеков О. Рауф Парфининг адабий-эстетик қарашлари. — Т.: Муҳаррир, 2013.
- 2.8. Парфи Р. Кўзлар. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
- 2.9. Парфи Р. Хотирот. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
- 2.10. Парфи Р. Қайтиш. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
- 2.11. Парфи Р. Сабр дарахти. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

- 2.12. Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000.
- 2.13. Парфи Р. Она Туркистон. – Т., 2007.
- 2.14. Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Муҳаррир, 2013.
- 2.15. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Т.: Фан, 1979.
- 2.16. Раҳмат Р. Адабиётдан чиқиш. – Т.: Академнашр, 2015.
- 2.17. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
- 2.18. Улуғов А. Қалб қандили. – Т.: Академнашр, 2013.
- 2.19. Холова М. Рауф Парфи ижодида метафора. – Т.: Муҳаррир, 2013.
- 2.20. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.
- 2.21. Шодмонов О. Адабиёт қисматдир. – Т.: Шарқ, 2014.
- 2.22. Қурбон Ш. Рауф Парфи сабоқлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014.
- 2.23. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012.
- 2.24. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, 1983.
- 2.25. Karimov N. va b. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Т.: O'qituvchi, 2004. - В. 337.

III. Internet saytlari

- 3.1. [http: // ziyo.net.uz](http://ziyo.net.uz).
- 3.2. [http: // www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz).